



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz




@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

IJTIMOYIY ONG OYNASI

Nazarimizda, til siyosatini belgilash va bu boradagi yo'nalishlarni aniqlashda hal qiluvchi omil – o'zbekcha talaffuz sofligi, milliy o'ziga xosliklarning yetakchi qilib belgilanishi bo'lishi kerak. Bizga ozmi-ko'pmi ma'lum bo'lgan aksar tillarda bu tutum prinsip darajasida turadi.



(6-sahifada o'qing.)



ILM YO'LI

KIMYO VA HAYOT

O'zFA Umumiy va noorganik kimyo instituti direktori,
kimyo fanlari doktori
Aziz IBRAGIMOV bilan suhbat



– Domla, suhbatimiz avvalida Fanlar akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo institutida yaratilayotgan yangi ishlanmalar va istiqbolli loyihalar haqida aytib o'tsangiz.

– Ayni paytda institutimizda ishlab chiqilayotgan texnologiyalarning asosiy afzalligi energiya tejamlilik va iqtisodiy samaradorlikka qaratilgan bilan bog'liq. Istiqbolli ishlanmalardan biri sifatida qishloq xo'jaligida o'simlik o'sishini rag'batlantiruvchi "CuVita AA-01" preparatini aytib o'tishim mumkin. Ushbu ishlanma 2024-yilda patentlanib, 2025-yildan boshlab litsenzion shartnoma asosida ishlab chiqarila boshlandi. Preparat ekin

o'sishini jadallashtirish, hosildorlikni oshirish hamda suv tanqisligi va qurg'oqchilikka chidamlilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Uni laboratoriya sharoitidan ishlab chiqarish bosqichigacha olib chiqish uchun o'n yil vaqt sarflandi. Jumladan, Farg'ona viloyatidagi fermer xo'jaliklarida preparat qo'llanilganda, mosh hosildorligi gektariga 17 sentnerdan 25 sentnergacha oshdi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi samaradorligini yuksaltirishda ilm-fanning bevosita hissasini ko'rsatadi..

(Davomi 3-sahifada.)



TALQIN

Global geosiyosiy va makroiqtisodiy mavhumliklar davrida kapitalni xavfsiz saqlash, barqaror bozorlarni kashf etish va ishonchli sheriklar topish xalqaro investorlar uchun ustuvor vazifaga aylandi. Shunday qaltils bir vaziyatda Markaziy Osiyoning iqtisodiy drayveri bo'lgan O'zbekiston navbatdagi yirik siyosiy-iqtisodiy tadbirga – Toshkent xalqaro investitsiya forumiga mezbonlik qildi.



TXIF-2026:

G'OYA VA SARMOYA

Bunday yirik forumlar O'zbekiston uchun nafaqat muloqot maydoni, balki amaliy hamkorlikka olib boradigan ishonchli ko'priikka aylanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro investitsiyalarni jalb qilish borasida katta yutuqlarga erishdi. Mamlakatimizga jami 150 milliard dollardan ziyod xorijiy sarmoya kiritildi, shundan 123 milliard dollari oxirgi besh yilga to'g'ri keladi, bu esa islohotlarning samarasi va ishonch darajasini yaqqol aks ettiradi. Forumga bo'lgan qiziqish bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda.

Joriy tadbirga 100 dan ortiq davlatdan qariyb 4 ming xorijiy delegat ishtirok etishi anjumaning nufuzi va global ahamiyatini ko'rsatadi. Bu ishbilarmonlar, investorlar va xalqaro tashkilotlar uchun O'zbekiston bozori haqidagi ishonchni yanada mustahkamlaydi. E'tiborlisi, Toshkent xalqaro investitsiya forumi yildan yilga o'z ko'lamini kengaytirib, global brendga aylanib bormoqda. O'tgan yilgi tadbirda Bolgariya Prezidenti Rumen Radev, Slovakiya Bosh vaziri Robert Fiso, Markaziy Osiyo davlatlarining hukumat rahbarlari,

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso hamda Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Russeff kabi nufuzli siyosatchi va moliyachilar ishtirok etgan, imzolangan investitsiyaviy va savdo kelishuvlarining umumiy qiymati 30,5 milliard dollarni tashkil qilgandi.

TXIF-2026 ham bundan mustasno emas. Unda Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston

Respublikasi Bosh vazirlari ishtirok etdi. Shu bilan birga, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yangi taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banki kabi moliyaviy institutlar hamda xorijiy banklar, kompaniya va tashkilotlar vakillarining faol ishtiroki O'zbekistonning yirik infratuzilma va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

(Davomi 2-sahifada.)



O'ZBEKISTON - GERMANIYA

STRATEGIK HAMKORLIK YANGI BOSQICHDA

Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning O'zbekistonga amaliy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning sifati va mazmunini yanada chuqurlashtirdi. Yevropa Ittifoqi hamda Germaniyaning Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni mustahkamlashda GFR rahbarining shaxsiy hisssasi va amaliy ishtiroki e'tiborga molik.



Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar tarixan uzun va samarali bo'lib, bu tashrif ularning strategik sherikligini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Tashrif davomida ikki tomonlama iqtisodiy loyihalar, investitsiyalar va texnologiya almashinuvi bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Davlat rahbarlari ishtirokida ikki tomonlama hujjatlar almashinuvi va qator yangi qo'shma loyihalarga start berilishi O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi bosqichi hisoblanadi. Ushbu tashabbuslar iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va malakali kadrlar tayyorlashda qat'iy amaliyotga asoslangan natijalar berishi kutiladi.

(Davomi 2-sahifada.)

FAKT

- ✓ 18-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yalpi yig'ilishi bo'lib o'tdi.
- ✓ Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi xonimi Ziroat Mirziyoyeva va Germaniya Birinchi xonimi Elke Byudenbenderning uchrashuvi bo'lib o'tdi.
- ✓ 23-26-iyun kunlari Namangan viloyati Davlatobod tumanidagi "Yangi O'zbekiston" xiyobonida III xalqaro maqom san'ati festivali bo'lib o'tadi.
- ✓ Yanvar-may oylarida jami 5 351 868 nafar chet el fuqarosi sayyohlik maqsadida O'zbekistonga tashrif buyurgan.



OGOHLIK

QALB UYG'UQ BO'LSA...

Bugun dunyo shunday murakkab bosqichga kirdiki, davlatlarning qudrati endilikda faqat iqtisodiy ko'rsatkich yoki harbiy salohiyat bilan o'lchanmaydi. Ayni paytda taraqqiyotning haqiqiy mezonini jamiyatning ichki barqarorligi, fuqarolarning ongi va mamlakat taqdiriga nisbatan daxldorlik hissigacha chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy tahdidlar avvalgidek tank yoki qurol bilan emas, avvalo, inson ongiga ta'sir ko'rsatish orqali o'z maqsadiga erishishga intilmoqda. Xo'sh, mana shunday murakkab

vaziyatda mamlakat o'z barqarorligi va taraqqiyotini nimalar hisobiga ta'minlaydi? Tashqi yordam va ta'sirlarga tayanadimi yoki o'z ichki salohiyati, fuqarolarining mas'uliyatigami?

Hayotning o'zi bir haqiqatni qayta-qayta tasdiqlamoqda: hech bir davlat yoki jamiyat boshqasiga mutlaq beg'araz yordam bermaydi. Xalqaro munosabatlarda zamirida doimo muayyan manfaatlar yotadi. Shuning uchun ham har bir xalqning ertasi, avvalo, uning o'z sa'y-harakati, ichki birligi va fuqarolari mas'uliyatiga bog'liq.

(Davomi 4-sahifada.)



TARIX VA TAQDIR

UZRI GUNOHIDAN BATTAR



"Jadid" gazetasida ma'rifatparvar olim Rustambek Shamsutdinovning aniq faktlarga asoslangan ta'sirli maqolalarini o'qir ekanmiz, ba'zan alohida shaxslar emas, butun oila vakillari "katta terror" domiga tortilganiga guvoh bo'lamiz. O'tgan yili Bahrom Irgayevning "Aybin bilmay ketgan Fuzail Sherahmedov" sarlavhali tadqiqot mahsulini o'qigan edik. Ma'lum bo'lishicha, maqola qahramoni Sherahmedovlar sulolasidagi yagona qurbon emas.

Bu ma'rifatli oila ildizlari Shayxon-tohur dahasining qadimiy "Qoryog'di" mahallasida yashovchi yirik savdogar boylardan bo'lmish Isroil Sherahmedov va Hojiahmadboy Sherahmadboy o'g'li xonadonlariga tutashadi. Xonadon farzandlari Najmiddin, Nasriddin va

Fuzail dastlab jadid hamda rus-tuzem maktablarida, xususan, Munavvar qori Abdurashidxonovning "Namuna" va Said Ahroriyning "Vatan" maktablarida tahsil oladi.

"Ko'mak" tashkiloti va Buxoro Xalq Respublikasi ajratgan sarmoya evaziga, oilaning to'ng'ichi, tadbirkor Najmiddin Sherahmedovning sa'y-harakatlari bilan Nasriddin, Fuzail hamda singlisi Said 1922-yilning kuzida Germaniyaga o'qishga yuboriladi. Berlinda tezkor nemis tili kursini tugatgan yoshlar tez orada tarqalib, Said Darmstadtga, Fuzail Shtreyldagi oliy texnika maktabining yo'l muhandisligi fakultetiga yo'l oladi. Nasriddin 1924-1925-yillari Berlindagi oliy savdo maktabida o'qib, 1925-yili mashhur Heydelberg universitetiga qabul qilinadi.

(Davomi 7-sahifada.)



Boshlanishi 1-sahifada.

Davlatimiz rahbari anjumanda soʻzlagan nutqida taʼkidlaganidek, Oʻzbekiston barcha investorlar uchun ochiq va teng huquqli sheriklik tamoyiliga qatʼiy sodiq. Davlat investorlarni jalb qilishda shaffoflik, kafolatlangan huquqiy reja va barqaror siyosatni taʼminlashga munosib eʼtibor qaratmoqda. Bu yoʻl, oʻz navbatida, xorijiy kapitalning uzoq muddatli loyihalarga kirishini ragʻbatlantiradi. Xususan, xorijiy sarmoyadorlar uchun raqamlashtirilgan maʼlumotlar, tayyor loyihalar va jozibador infratuzilma yaratish boʻyicha olib borilayotgan ishlar bozorga kirish jarayonlarini osonlashtiradi. Buni oliy darajadagi meʼyoriy-huquqiy islohotlar va moliyaviy institutlar bilan birgalikda amalga oshirish rejalangan. Mazkur choralar investitsiyaviy iqlimni yanada yaxshilash, xususiy sektorning rolini kengaytirish, texnologiya va malakali kadrlarni jalb etish orqali mamlakatimiz bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor investorlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Oʻzbekiston teng huquqli va oʻzaro foydali hamkorlikka tayyor va bu yoʻldagi saʼy-harakatlar katta marralarga erishish uchun mustahkam poydevor boʻlib xizmat qiladi. Forum aynan shunday faol muloqot va amaliy kelishuvlar uchun eng qulay maydon. Biz quruq qogʻozlarda qolib ketadigan emas, balki amalga oshiriladigan loyihalar davriga kiraymiz.

Birgalikdagi harakatlar xalqimiz farovonligi va rivoji yoʻlidagi eng muhim kapitaldir.

Jahon iqtisodiyotida geosiyosiy va savdo ziddiyat kuchayayotgan bir davrda Oʻzbekistonning hozirgi yutuqlari va imkoniyatlari juda ham ahamiyatli. Birinchidan, mamlakatimizning iqtisodiy koʻrsatkichlari namunali va ishonchli. Oʻtgan yili yalpi ichki mahsulot 7,7 foizga oʻtdi, iqtisodiyotga 43 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritildi, xalqaro valyuta zaxiralari 70 milliard dollardan oshib, milliy valyuta barqarorligi taʼminlandi. Bu natijalar mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va investitsiya muassasalariga boʻlgan ishonchning natijasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, Oʻzbekiston strategiyani shaxsiyatlar emas institutlar, qonun va kafolatlar asosida quryapti. Yangi Oʻzbekistonda investor huquqlarini himoya qilish tizimi tizimli rivojlanayotgan. Shaffof soliq va bojxona rejimi, kapital erkinligi, xorijiy valyutada hisob-kitob qilish imkoniyati kabi adekvat mexanizmlar joriy etilmoqda. Bu kapital uchun kuchi yuqori ragʻbat demakdir.

Hozirgi bosqichda Oʻzbekiston ulkan islohotlar va investitsiyaviy imkoniyatlar davrini boshdan kechirmoqda. Forum platformasida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoʻnalishlar – investorlar uchun munosib sharoitlar, kapital bozorini rivojlantirish, “yashil” energetika va sunʼiy intellekt, yuqori qoʻshilgan qiymat zanjirlari hamda mintaqaviy transport-logistika – mamlakatimizni global iqtisodiyotning markaziy nuqtalari qatoriga koʻtarishga qaratilgan.

Birinchii yoʻnalish – investorlar uchun huquqiy kafolat tizimini yanada kuchaytirish. Bu yilgi forumning mutlaq markaziy voqeasi va bosh sensatsiyasi shu yilning mart oyida Prezident farmoni bilan tashkil etilgan “Toshkent xalqaro moliya markazi” taqdimoti boʻldi. Ushbu tashabbus shunchaki chiroyli nom emas, aksincha, xalqaro investorlar

TXIF-2026: GʻOYA VA SARMOYA



uchun eng tanish va xavfsiz boʻlgan Ingliz umumiy huquqi (Common Law) tamoyillariga asoslangan mutlaqo yangi institutsional va huquqiy arxitektura.

Jahondagi yetakchi moliyaviy xabarlar (London, Dubai, Singapur) tajribasi shuni koʻrsatadiki, yirik kapital egalari uchun davlatning iqtisodiy oʻsish surʼatlaridan koʻra huquqiy tizimning shaffofligi va bashorat qilinishi (prognozga egaligi) muhimroqdir. Toshkent xalqaro moliya markazi aynan mana shu ehtiyojni qondirish uchun yaratildi.

Markazni tashkil etish tashabbusi mamlakatning global moliyaviy xaritada oʻrnini mustahkamlaydi. Uning huquqiy bazasi Konstitutsiyaviy qonun bilan mustahkamlanadi, ushbu hududda jozibador soliq va regulativ rejim – investitsiyaviy imtiyozlar 50 yilgacha belgilash imkoniyati bilan ragʻbatni kuchaytiradi. Angliya umumiy huquqiga asoslangan maxsus rejim, mustaqil tijorat sudi va xalqaro ekspertizani jalb qilish investorlarga xalqaro standartlar darajasida huquqiy himoyani kafolatlaydi.

Investitsion nizolarni hal qilish uchun suddan tashqari mexanizmlar – mediatsiya va xalqaro kelishuvlar asosidagi tezkor hal qilish vositalari mustahkamlanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Singapur konvensiyasiga qoʻshilish niyati shu yoʻnalishdagi yirik qadamlardan biridir.

Ushbu choralar natijasida investorlar Oʻzbekistonning oʻzida kafolatlangan xalqaro huquqiy himoyaga ega boʻladi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan **ikkinchi yoʻnalish** – kapital bozorini rivojlantirish, muqobil moliya vositalariga keng yoʻl ochish. Shu haqda soʻz borganda, soʻnggi yillarda mamlakatimiz xalqaro moliya bozorlarida faollashib borayotganini taʼkidlash joiz. Jamii 16 milliarddan ortiq obligatsiyalar mazkur bozorlarga muvaffaqiyatli joylash-tirildi va milliy valyutadagi korporativ yevroobligatsiyalar aylanmaga kiritildi.

Ayniqsa, Milliy investitsiya jamgʻarmasining 30 foiz aksiyalari Toshkent va London birjalarida IPO orqali chiqarilgani London birjasining soʻnggi besh yil ichidagi eng yirik IPOlaridan biri boʻldi. Bundan tashqari, qator yirik kompaniyalarning IPOlari uchun tayyorgarliklar allaqachon boshlandi. Loyihalar ichki bozorni mustahkamlash va xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatini yanada kuchaytirishi kutilmoqda.

Kapital bozorini rivojlantirishning huquqiy-organik asosini mustahkamlash maqsadida “Kapital bozori toʻgʻrisida” va “Muqobil investitsiya jamgʻarmalari toʻgʻrisida”gi qonunlar qabul qilinishi rejalashtirilgan. Bu qonunlar xususiy sektorning ilgʻor moliyaviy institutlar, venchur va xususiy kapital fondi, shuningdek, xalqaro kliring va kalon moliyaviy institutlar uchun qulay hududni yaratadi. Investitsiya oqimini diversifikatsiya qilish uchun Oʻzbekiston suveren islom obligatsiyalari dasturini yoʻlga qoʻyadi. Bu mexanizm islom moliyasiga asoslangan investorlarga mamlakat bozorida ishtirok etish imkonini beradi hamda kamida 10 milliard dollarlik qoʻshimcha kapitalni jalb etishga katta turtki boʻlishi kutilmoqda.

Uchinchi yoʻnalish – “yashil” energetika va sunʼiy intellekt sohasidagi sheriklikni yanada chuqurlashtirish. Oʻzbekiston “yashil” energetikaga katta ustuvorlik bermoqda: elektr generatsiyasida yanada yuqori ulush – 2030-yilgacha 54 foizga erishishni rejalashtirgan. Bu maqsadga erishish uchun davlat quyosh va shamol elektr stansiyalariga investitsiyalar, energiya saqlash tizimlarini joriy etish loyihalari, tarmoqlar va uzatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ham “yashil” energiyaga ulangan, ham iqlimga mos data-markazlar barpo etish borasida imkoniyatlarni taklif qilmoqda. Investorlar uchun imtiyozlar, uzoq muddatii PPA shartlari, maxsus iqtisodiy zonalar va qulay

tariflar tizimi loyihalarning rentabelligini oshiradi. Bu bozordagi imkoniyatlar nafaqat ekologiyaga foyda keltiradi, balki yuqori daromadli investitsiyalar yaratish imkonini beradi.

Sunʼiy intellekt – iqtisodiy oʻsish va raqobatbardoshlikning asosiy dvigateli. Oʻzbekiston sohada Milliy strategiyani qabul qildi va “Besh million yetakchi” kabi masshtabli dasturlar yoʻlga qoʻyildi. Asosiy maqsad taʼlim, sogʻliqni saqlash, davlat xizmatlari va biznes jarayonlarida sunʼiy intellekt qoʻllanilishini kengaytirishdan iborat.

Toʻrtinchi yoʻnalish – yuqori qoʻshilgan qiymat zanjirlarini kengaytirishga investitsiyalarni jalb etish. Sanoatni yuqori texnologiyali bosqichga koʻtarish yoʻlida Oʻzbekiston katta dasturlarni boshladi. Kelasi besh yilda sanoatdagi yuqori texnologiyali mahsulot hajmini 2,5 barabarga koʻpaytirish maqsad qilingan. Xususan, ilgʻor kimyo tarmogʻini rivojlantirish orqali 20 milliard dollarlik investitsiya salohiyati, hududlarda 15 mingdan ortiq yuqori daromadli ish oʻrinlari yaratish, 130 turdagi yangi mahsulotni ishlab chiqarishga qoʻl keluvchi hamkorlik loyihalari shular jumlasidan.

Oʻzbekistonning boy tabiiy resurslari – oltin, mis, uran, volfram, gaz va boshqa noyob zaxiralar – bugungi sharoitda katta investitsiya va qoʻshilgan qiymat yaratish imkonlarini beradi. Yer osti boyliklarining umumiy qiymati taxminan 3 trillion dollarga baholanmoqda. Bu sohadagi imkoniyatlarni xorijiy investorlarga taqdim etish maqsadida ochiq raqamli geologiya maʼlumotlar bazasi yaratilyapti. Prezidentimiz investorlarni mashinasozlik, robototexnika, yengil sanoat, qurilish materiallari, elektrotexnika, farmatsevtika kabi “drayver” tarmoqlarda ham 30 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirishni taklif qildi.

Beshinchi yoʻnalish – mintaqaviy transport-logistika bogʻliqligini rivojlantirish. Oʻzbekiston mintaqaviy hamkorlikning markaziga aylanishni maqsad qilgan. Bu borada Xitoy va Qirgʻiziston bilan strategik temir yoʻllar qurilishi, Transafgʻon koridori orqali janubiy dengiz portlariga toʻgʻridan toʻgʻri chiqish, Kaspiy orqali “Oʻrta koridor”ni kengaytirish va Yevropa-Osiyo transport magistralariga integratsiya, yangi tezyurar avtomobil yoʻllari, koʻp funksiyali logistika markazlari va “quruq port”lar tashkil etish, Saudiya bilan hamkorlikda Oʻzbekistonda yiliga 20 million yoʻlovchiga moʻljallangan yangi Toshkent xalqaro aeroportini qurish loyihagini amalga oshirish koʻzlangan. Bu loyihalar mamlakatni tranzit va logistika markaziga aylantirib, mahsulotlar eksporti va importini yengillashtiradi hamda mintaqaviy savdo oqimlarini oshiradi.

Shuningdek, hududlarni rivojlantirishda investitsiyaviy hamkorlikni yangi bosqichga koʻtarish ham muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekistonning iqtisodiy va demografik koʻrsatkichlari yuksalayotgan bir pallada hududlarni kompleks rivojlantirish – mamlakat taraqqiyotining muhim drayveriga aylanmoqda. Mamlakatimiz aholisi soni qariyb 40 millionga yaqinlashishi, iqtisodiy oʻsish va urbanizatsiya bosqichlarining tezlashishi shaharsozlik, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarga yuksak salohiyatli investitsiya talab qiladi. Hukumat bu realikni hisobga olgan holda hududiy taraqqiyotni yangi uslubda – investitsiyaviy hamkorlik, davlat-xususiy sheriklik va strategik loyihalar orqali roʻyobga chiqarish yoʻlini tanladi. Bu yoʻnalishda ham investorlar ishlashi uchun katta maydon va imkoniyat mavjud. Xullas, forum ishtirokchilari global inqirozlar sharoitida kapitalni qanday himoya qilish, qaysi institutsional mexanizmlar rivojlantirishga bozorlarda investitsiya barqarorligini taʼminlashi va yangi hamkorlik yoʻnalishlarini qayerdan izlash kerakligi kabi eng dolzarb savollarga javob izladilar.

TXIF-2026 ikki tomonlama biznes-forumlar formatini faol saqlab qolgan holda, Oʻzbekistonning tashqi iqtisodiy hamkorlik koʻlamini kengaytirmoqda. Forum doirasida bir qator davlatlar va tashkilotlar bilan alohida investitsiyaviy muloqotlar boʻlib oʻtdi. Albaniya, Koreya Respublikasi, AQSH, Vengriya, Turkiya va Ozarbayjon kabi davlatlar bilan ikki tomonlama biznes-forumlar, Xitoy va SHHT davlatlari oʻrtasidagi maxsus investitsiyaviy muloqot platformasi shular jumlasidan.

Yangi Oʻzbekiston – bu oʻzgarishlarga tayyor, imkoniyatlarga ochiq va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakat. Prezident sarmoyadorlarni mamlakatimiz bilan birgalikda yangi marralarga erishishga taklif etdi. Bu marralar quruq gaplar bilan emas, haqiqiy investitsiya va qoʻshma loyihalar orqali amalga oshadi. Uch kunlik uchrashuvlar natijasida oʻn milliardlab dollarlik yangi investitsiya bitimlari imzolangan mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi darajasini belgilab berdi. Shuningdek, TXIF-2026 xalqaro moliya institutlari va yirik kompaniyalar bilan hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilib, Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun yanada ulkan imkoniyatlar eishigini ochdi.

Oʻktamjon HAMRAALIYEV

Boshlanishi 1-sahifada.

Toshkentda oʻtkazilgan muloqotlar davomida Germaniyaning yetakchi korxonalari – avtomobil, logistika, farmatsevtika, toʻqimachilik va taʼlim sohaslarida faoliyat yurituvchi kompaniyalarning Oʻzbekiston bozoriga keng kirish niyatini maʼlum qildi. Shu munosabat bilan ikki tomonlama moliyaviy hamkorlik doirasida shaharlarni barqaror rivojlantirish loyihalari uchun grantlar va imtiyozli moliyalashtirish kelishuvlari imzolandi. Bu mablagʻlar mahalliy infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishdagi sarmoya kafolatini mustahkamlaydi.

Ayniqsa, Prezidentlar huzurida muhim qoʻshma loyihalarga start berilishi muloqotlarning samarali kechganini anglatadi. Xususan, Volkswagen uchun Toshkentda yirik tarmoqli yigʻish korxonasi tashkil etildi. Bu loyiha mahalliy avtomobilsozlik klasterini shakllantirish, komponentlar ishlab chiqaruvchilarini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Andijon viloyatida logistika markazini barpo

etish mintaqaviy tovar aylanmasini optimallashtirish, tranzit va logistik operatorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Temiryoʻlsohasi uchun mutaxassislar tayyorlash va zamonaviy imtihon markazlarini ochilishi transport sohasidagi kadrlar talabini hal qilish va xizmat sifatiga kafolat berishni anglatadi. Bu loyihalar nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mahalliy sanoatni modernizatsiya qilish va texnologiya transferini ham taʼminlaydi. Nemis texnologiyalari va standartlari asosida mahsulot sifati yaxshilanadi, bu esa xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi. Texnik taʼlim va imtihon markazlari kadrlarning malakali boʻlishiga xizmat qiladi, shu bilan sanoatning texnologik darajasi koʻtariladi.

Germaniya bilan hamkorlikdagi loyihalar atrof-muhit muhofazasi, energosamaradorlik va “yashil” texnologiyalarni ham koʻzda tutadi.

Oʻzbekistonning Yevropa qiyofasidagi muhim hamkori sifatida Germaniya bilan munosabatlarni kengaytirish mintaqaviy integratsiyani ham kuchaytiradi. Loyihalar texnik tajriba, moliyaviy resurs va bozor imkoniyatlarini birlashtirib, ikki tomon uchun birdek foyda keltiradi. Germaniya bilan amaliyotdagi sheriklik – bu Oʻzbekistonning sanoat, taʼlim, logistika va ekologik barqarorlik sohaslaridagi transformatsiyasi uchun strategik imkoniyatdir. Nemis texnologiyalari, investitsiyalari va taʼlimiy hamkorliklari orqali Oʻzbekiston “oʻrta marradan” yuqori qoʻshilgan qiymatga ega iqtisodiyotga oʻtishni tezlashtirishi mumkin. Germaniya esa Oʻzbekiston orqali Markaziy Osiyo bilan yaqinroq integratsiya, resurs va bozorlar diversifikatsiyasini amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Tan olish kerak, Germaniya iqtisodiy, siyosiy, harbiy va texnologik

jihatdan Yevropa va dunyoning eng nufuzli davlatlaridan biri. Oʻzbekiston uchun esa Berlin bilan yaqin hamkorlik nafaqat investitsiya va texnologiya olish manbayi, balki mintaqadagi strategik sheriklikning muhim elementidir. Iqtisodiy jihatdan Germaniya – Yevropadagi eng yirik eksportyorlardan biri, dunyo iqtisodiyotida yetakchi oʻrinlardan birida. Avtomobilsozlik (VW, BMW, Mercedes), mashinasozlik, kimyo va farmatsevtika (BASF, Bayer) sohalari kuchli. Oʻrta korxonalari innovatsiya va eksportning asosiy drayveri.

Germaniya uchun Toshkent asta-sekin Markaziy Osiyo siyosatidagi asosiy tayanch nuqtasiga aylanmoqda. Bu jarayonning sabablarini tushunish uchun, oʻzaro aloqalardan tashqari, Yevrosiyoda shakllanayotgan yangi geoiqtisodiy muhitga nazar tashlash lozim. Bugungi kunda davlatlar ahamiyati faqatgina joylashuvi bilan emas,

balki qanday imkoniyatlar taklif qilishlari bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Oʻzbekistonning Germaniya Federativ Respublikasi uchun Markaziy Osiyodagi muhim hamkorlardan biri boʻlib qolishi tasodif emas.

GFRning tashqi iqtisodiy strategiyasida “yashil transformatsiya” tushunchasi markaziy oʻrin egallaydi. Bu jarayon ekologik siyosatdan koʻra, XXI asrning eng yirik iqtisodiy yangiliklaridan biri hisoblanadi.

Germaniya sanoati energiya manbalari, elektr transport vositalari, raqamli texnologiyalar va yuqori texnologik ishlab chiqarishga tobora koʻproq tayanmoqda. Natijada strategik mineral resurslarga talab keskin oshyapti. Bu nuqtada Oʻzbekistonning roli muhimdir.

Germaniya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlar savdo raqamlari yoki investitsiyalar bilan chegaralanmaydi. Ularning haqiqiy salohiyati

demografik omillarda, taʼlim va texnologiya sohasidagi hamkorlikda namoyon boʻladi. Kelajakda bu ikki taraqqiyot maqsadi bir-biriga yaqinlashganda shakllanadi. Germaniya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi hamkorlikning kelajagi aynan shunday umumiy maqsadlarga asoslanadi. Ikki davlatning iqtisodiy modernizatsiyasi va texnologik taraqqiyotining bir-biriga yaqinlashishi ularning strategik sherikligini mustahkamlaydi.

Iqbol MIRZO



KIMYO VA HAYOT

Boshlanishi 1-sahifada.

Turli sanoat chiqindilaridan uglerod nano-trubkalarini olishning yangi texnologik yechimlari ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bu bir tomondan chiqindilarni qayta ishlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Mazkur materiallar yuqori mustahkamligi, elektr va issiqlik o'tkazuvchanligi sababli, zamonaviy texnologiyalarning eng talabgir mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Belarus, Turkmaniston, AQSH, Finlyandiya va Xitoy kabi davlatlarning yetakchi olimlari bilan hamkorlik qilyapmiz.

Mahalliy uglevodorod xomashyosidan "Jet A-1" aviakerosini olish texnologiyasi yaratildi. Ushbu texnologiya Buxoro neftni qayta ishlash zavodida amaliyotga joriy etilgan. Natijada 1 million 100 ming tonnadan ortiq mahsulot ishlab chiqarilib, qariyb 24 milliard so'm iqtisodiy samara olindi.

Umuman olganda, ilm-fan faqat ilmiy maqola yoki patentlar bilan cheklanmaydi. Uning asosiy vazifasi iqtisodiyotning real sektoridagi muammolarga yechim topish, yangi texnologiyalar yaratish va mamlakatning texnologik mustaqilligini ta'minlashdan iborat. Bugun Fanlar akademiyasi tizimida oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi, resurslardan samarali foydalanish kabi dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan o'nlab amaliy loyihalar hayotga tatbiq qilinaypti. Shu ma'noda, ilm-fan mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish, importga qaramlikni kamaytirish va xalq farovonligini yuksaltirishning muhim omillaridan biridir.

– **Xalqaro hamkorlik haqida gapirdingiz. Fanlar akademiyasi tarkibidagi boshqa institutlar bilan ham aloqalar o'rnatilganmi? Chunki bugun mahalliy ilmiy muassasalar salohiyati ham xorijnikidan qolishmaydi, nazarimizda.**

– To'g'ri aytgandiz. O'ZFA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti bilan jiddiy loyihaga qo'l urganmiz. Aerogellar – olimlarimiz hamkorligi mahsuli. Aerogellar dunyoda eng yengil materiallar qatoriga kiradi. Ular yuqori g'ovaklikka ega bo'lib, o'ziga xos fizik-kimyoviy xususiyatlari sababli turli sohalarda keng qo'llanilmoqda. Xususan, qurilish sanoatida issiqlik va tovush izolyatsiyasi, zarbalarni yutuvchi himoya materiallarida, qishloq xo'jaligida zararli moddalarni adsorbsiya qilish, shuningdek, to'qimachilik sanoatida oqava suvlarni organik ifloslantiruvchilardan tozalash kabi yo'nalishlarda foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Ularning yana bir muhim afzalligi – olovga bardoshi va yengilligi hamda yuqori samaradorligida. Shu sababli, aerogellar bugungi kunda dunyo ilm-fanidagi eng istiqbolli smart materiallardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekistonda bu yo'nalish nisbatan yangi hisoblanadi. Shunga qaramay, ushbu sohada faol ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kelgusida aerogellarning yangi turlari va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha izlanishlarni yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

– **Xalqaro ilm-fan maydonida shu kecha-kunduzda qaysi yo'nalishlar jadal rivojlanmoqda?**

– Dunyo miqyosida sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari, energetika, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika kabi sohalar mislsiz rivojlanish bosqichiga kirgan. Kimyo fanida esa eng istiqbolli yo'nalishlardan biri – smart materiallar va nanomateriallarni yaratish. Masalan, qishloq xo'jaligida ko'plab zararli patogenlar mavjud preparatlarga nisbatan chidamlilik hosil qilmoqda. Shu bois, yangi antimikrob xususiyatga ega materiallar va preparatlarni yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shuningdek, biotexnologiya, nanokimyo, nanomateriallar, nochiqliq optik materiallar va metallorganik karkaslar (MOF) yo'nalishlari ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Nochiqliq optik materiallar superkondensatorlar, lazer texnologiyalari va boshqa yuqori texnologik sohalarda keng qo'llaniladi. Metallorganik karkaslar yuqori sorbsion xususiyatga ega yangi materiallar bo'lib, ular suvni tozalash, dori vositalarini maqsadli yetkazib berish kabi yo'nalishlarda qo'llanishi mumkin.

Nanokimyo ham bugungi kunda eng tez o'sayotgan sohalardan biridir. So'nggi yillarda ilm-fanga qaratilayotgan e'tibor va zamonaviy asbob-



uskunalar xarid qilinishi natijasida bu boradagi imkoniyatlar tubdan kengaydi. Bugun o'zbekistonlik olimlar nanomateriallarni yaratish va o'rganish bo'yicha jahon ilm-fani bilan hamnafas izlanishlar olib bormoqda. Kelajakda ushbu yo'nalish mamlakat iqtisodiyoti va sanoati uchun zarur bo'lgan yangi texnologiyalarni yaratishda muhim o'rin tutadi.

– **Olimlar bilan suhbatlarimizdan ma'lum bo'ldiki, avvallari xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik o'rnatish uchun asosan O'zbekiston tomoni tashabbus ko'rsatgan bo'lsa, endilikda hamkorlik takliflari xorijdan kelmoqda ekan.**

– Haqiqatdan shunday bo'lyapti. Bu ilm-fanga ajratilayotgan mablag'larning ortishi, ilmiy infratuzilmaning yangilanishi va olimlar uchun yaratilgan sharoitlar tufaylidir. O'zbekiston ilm-fani so'nggi 7-8 yil ichida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Buni xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilayotgan ilmiy maqolalar soni va sifatining ortgani, xorijiy patentlar va qo'shma loyihalar safining kengaygani ham tasdiqlaydi.

Masalan, Umumiy va noorganik kimyo instituti bugungi kunda 30 dan ortiq xorijiy ilmiy markaz va universitetlar bilan hamkorlik memorandumlarini imzolagan. Xitoyning yetakchi universitetlari bilan qo'shma laboratoriyalar tashkil etilgan. Eng muhimi, bugun nafaqat O'zbekistonda, balki Xitoyda ham o'zbek olimlari ishtirokidagi ilmiy laboratoriya faoliyat yuritmoqda. Hindiston bilan ham yangi qo'shma laboratoriya tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Bunday hamkorliklar ilmiy tajriba almashish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va xalqaro miqyosdagi loyihalarni amalga oshirish uchun muhim platforma vazifasini o'tamoqda.

Yangi O'zbekiston ilm-faniga rivojlangan davlatlar tomonidan bildirilayotgan qiziqish mamlakatimiz ilmiy salohiyatining sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi.

– **Yangi O'zbekistonda yosh olimlarga ko'rsatilayotgan e'tibor haqida qanday fikrdasiz?**

– Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasining asosiy tayan-chi – yoshlar, ya'ni inson kapitalidir. Shu bois, bugun yosh olimlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan iqtidorli yoshlar rivojlangan davlatlarning yetakchi ilmiy markazlariga tajriba almashish va malaka oshirish dasturlariga yuborilmoqda. Eng muhimi, bu xarajatlar davlat tomonidan qoplanadi. Avval xorijda tajriba oltirish uchun turli grant va fondlarga murojaat qilishga to'g'ri kelardi. Bugun davlatning o'zi yoshlarni qo'llab-quvvatlamogda. Bu esa zamonaviy dunyoqarashga ega, xalqaro ilmiy jarayonlar bilan hamnafas olimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Yosh olimlar uchun alohida grantlar, doktorantura kvotalari va startap loyihalari ham yo'lga qo'yilgan. Ilmiy g'oyalarni amaliyotga tatbiq qilib, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashda startaplar muhim vositaga aylanmoqda.

Eng muhimi, yoshlar yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishi kerak. Ilm-fanda muvaffaqiyatning asosiy shartlari – bilim, mehnatsevarlik va halollikdir. Zamonaviy ilm-fanni, ilmiy adabiyotlar va xalqaro resurslarni o'rganishda til bilish ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, yosh tadqiqotchilar nafaqat o'z mutaxassisligini mukammal egallashi, balki xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishi zarur. Bu ularga dunyo ilmiy hamjamiyati bilan bevosita muloqot qilish, yangi bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Ishonamanki, yaqin yillarda O'zbekistondan dunyo miqyosida tan olinadigan, xalqaro maydonda bemaol raqobatlasha oladigan olimlar yetishib chiqadi.

– **Gazetamizda "Olam olimi" rukni ochilgan. Unda ilm-fan bo'yicha Nobel mukofoti laureatlari tarjimaiyoli holi berib boriladi. Har yili yangi ro'yxat e'lon qilinganda, "Qachon bizdan ham nobelchi olimlar chiqar ekan?" deb havas qilamiz. Avvallari bu bir tush edi. Ammo so'nggi yillarda umid uyg'onmoqda. Sizingcha, bunday natijalarga erishishda hal qiluvchi omillar nima?**

– O'zbek olimlari ham kelajakda bunday mukofotlarga sazovor bo'lishiga ishonaman. Biroq bu yutuqlar bir kunda yoki faqat bir olimning iste'dodi bilan qo'lga kiritilmaydi. Buning ortida yillar davomida shakllangan ilmiy maktab, zamonaviy infratuzilma, kuchli laboratoriyalar va katta hajmdagi investitsiyalar turadi.

Masalan, men faoliyat yuritayotgan yo'nalish – metallorganik karkaslar (MOF) sohasini olaylik. Bu yo'nalish 1990-yillardan boshlab jadal rivojlanib, bugungi kunda zamonaviy materialshunoslikning eng istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylandi. Ushbu sohada faoliyat yuritgan olimlar orasida Nobel mukofotiga sazovor bo'lganlar ham bor. Shulardan biri – amerikalik olim Omar Yagi. Men 2012-yilda AQSHda stajirovka o'taganimda, Omar Yagi laboratoriyasida bo'lganman. O'sha paytdayoq bu laboratoriya dunyoning eng istiqbolli ilmiy markazlaridan biri sifatida e'tirof etilgan edi. U yerda o'nlab professorlar, yuzlab tadqiqotchilar faoliyat yuritir, laboratoriya rivojiga yillar davomida katta mablag'lar yo'naltirilardi.

Shu bois, Nobel mukofoti yoki boshqa yirik ilmiy yutuqlar haqida gap ketganda, faqat yakuniy natijani emas, balki unga olib boradigan yo'lni ham hisobga olish kerak. Bugun O'zbekistonda aynan shu poydevor bosqichma-bosqich qad rostlab, mustahkamlanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O'zbekistonda ilm-fanga qaratilayotgan e'tibor yaqin yillarda o'z samarasini berishiga ishonaman. Agar kelgusi o'n yilda Nobel mukofotiga da'vogarlik qiladigan o'zbek olimlari yetishib chiqsa, bu katta yutuq bo'ladi.

Bugun sportda, jumladan, shaxmatda erishayotgan muvaffaqiyatlarimiz ortida qanday tizimli ishlar turgan bo'lsa, ilm-fanda ham xuddi shunday jarayon kechmoqda. Ilmiy muhit, moddiy-texnik baza va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari kengayib borayotgani kelajakda o'z natijasini beradi, deb o'ylayman. Uning ilk mevalarini xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritayotgan o'quvchi-yoshlarimizda ko'ryapmiz.


– **Biz ham Sizing timsolingizda olimlarimizga sharaflari va mashaqqatli faoliyatlarida kuch-quvvat hamda baraka tilaymiz! Mazmunli suhbat-ingiz uchun rahmat.**

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.



Ushbu QR-kodni skaner qilib suhbatni video shaklda ko'ring!

OLAM OLIMI



Omar YAGI

kimyo fanining mujaddidi bo'lgan nobelchi

Zamonaviy kimyo va materialshunoslik taraqqiyoti haqida so'z ketganda, Omar Yagi nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. U metall-organik karkaslar va kovalent organik karkaslar sohalarining asoschilaridan biri. Tadqiqotlari orqali energiya, ekologiya, suv ta'minoti va iqlim o'zgarishi kabi eng dolzarb muammolarga innovatsion yechimlar taklif qilmoqda.

UMR YO'LI

Omar Yagi 1965-yil 9-fevralda Jordaniyaning Amman shahrida, falastinlik muhojir oilasida tavallud topgan. Bolaligi og'ir sharoitda o'tgan. 16 yoshida AQSHga ko'chib o'tib, kollejda o'qidi.

Kimyoga bo'lgan cheksiz qiziqishi uni Albani universitetiga yetakladi. 35 yoshida Illinoys universitetida noorganik kimyo bo'yicha doktorlik darajasini oldi. U tahsil olishdan to'xtamadi va 2011-yilgacha Harvard, Arizona, Michigan, Kaliforniya universitetlari diplomini qo'lga kiritdi.

Hozirda Kaliforniya universitetida professor. Berkli shahridagi AQSH Energetika departamentining milliy laboratoriyasi mas'ul xodimi.

Xalqaro ilmiy doirada tan olingan 250 dan ortiq maqolalar muallifi.

TADDIQOTLARI

Omar Yagining eng katta ilmiy yutug'i retikulyar kimyo konsepsiyasini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'ldi. Bu yondashuv atomlar va molekullarni oldindan rejashtirilgan tartibda birlashtirish orqali mutlaqo yangi xususiyatlarga ega materiallarni olish imkonini beradi.

Ushbu g'oya asosida olim metall-organik karkaslar va kovalent organik karkaslar deb ataluvchi yangi sinf materiallarni kashf qildi. Ular ulkan ichki g'ovakli tuzilmalarga ega bo'lib, yuza maydoni favqulodda katta hisoblanadi. Ana shu xususiyat ularga turli gazlar va moddalarni samarali saqlash va ajratish imkonini beradi.

Yangi texnologiya havodan suv yig'ish, karbonat angidridni ushlab qolish, vodorod va metan kabi gazlarni saqlash, havoni tozalash, energiya saqlash tizimini rivojlantirish, yangicha katalizatorlar yaratish, ekologik texnologiyalarni takomillashtirish imkonini beradi.

EHTIYOJ VA E'TIROF

Omar Yagi ilmiy ishlaridan jahon bo'yicha eng ko'p iqtibos olingan besh olimdan biri hisoblanadi. Eng mashhur maqolalari "Metallorganik karkaslarning kimyosi va qo'llanilishi" (18 070 iqtibos), "Retikulyar sintez va yangi materiallarni loyihalash" (11 328), "Metallorganik karkaslarga kirish" (8 146) va boshqalar.

Bu ishlar nafaqat kimyo sohasida, balki materialshunoslik, nanotexnologiya, energetika va ekologik muhandislik sohalarida ham fundamental ahamiyatga ega hisoblanadi.

Omar Yagi ulkan ilmiy xizmatlari uchun ko'plab xalqaro mukofotlar, faxriy unvonlar va akademiyalar a'zoliciga sazovor bo'lgan. Ilmiy jamoatchilik uni zamonamizning eng nufuzli kimyogar olimlaridan biri sifatida e'tirof etadi.

Richard Robson, Susumu Kitagava bilan muvofiq tadqiqotlari uchun Omar Yagi 2025-yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.



Inson goh-goh duch keladigan har bir muvaffaqiyatsizlikni baxtsizlik deb hisoblamasligi lozim. Kim biladi deysiz, balki haqiqiy baxt kichik muvaffaqiyatsizlikdan boshlanar.

Chingiz AYTMAOV



ESSE

VIDO QO'NG'IROG'I

Qurbon hayiti kuni ulug' ustozim Ibrohim G'afurovni ham tabriklab, ham ziyorat qilmoq niyatida qo'ng'iroq qildim. Telefonni olmadi. So'ng farzandi Humoyunning raqamini terdim. U yo'lda ekani, ustozni olib bir-ikki fothalik joyga borishlari kerakligini aytdi. Agar ertaroq qaysak, qo'ng'iroq qilaman, dedi. O'sha kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Mukofotlanganlar orasida kaminaning ham nomi bor ekan. Kutilmaganda tabriklar boshlanib ketdi. Mukofot topshirish marosimiga bordim, ustoz bilan ko'rishish imkoniyati bo'lmadi...

To'rtinchi iyun kuni kechga yaqin Yunusobod bozori yonidagi Universam do'koniga bir ish bilan borgan edim. Do'konda bejirim kitoblari bo'limi bor. Har gal borganimda, albatta, biror yangi kitob xarid qilaman. Kitoblarni ko'zdan kechirayotib, F.Dostoyevskiyning "Qimorboz" kitobiga ko'zim tushdi. Olib varaqladim. "Ibrohim G'afurov tarjimai" deb yozilgan. Bu kitobni allaqachon o'qigan edim. Ustozning nomini ko'rib taskin topdim. Ko'z oldimga ustozning nurli chehrasi keldi. Ziyorat qilolmayotganimdan yana afsuslanib, o'n qadamcha yurgan edim, qo'l telefonim jiringladi. "Labbay" deysim bilan ustozning: "Ashurjon, yaxshimisiz?" degan muborak ovozlari eshitildi. Beixtiyor ko'zlarimda sog'inchi yoshlari aylandi. Vujudimda yorug'lik paydo bo'ldi. Hayajondan qayta-qayta salom berdim. Hayit kuni o'tolmaganim uchun uzr so'radim. "Humoyun aytdi", dedi ustoz.

Telefon orqali oramizda shunday samimiy sog'inchi suhbat bo'lib o'tdi.

— Mukofot muborak bo'lsin. Tabriklayman! Prezidentimizning qo'llaridan olganingiz juda zo'r, xayrli bo'libdi. Prezidentimiz hamisha mehnat qilgan odamni qadrlaydilar. Xizmatini bilib, ko'rib, e'tiborga olib yuradilar. Xotiralar juda o'tkir. Bir ko'rgan yo o'qigan narsasini eslab qoladilar. Oliy Majlisda birga ishlagan yillarda, hatto u kishining xotiralariga Erkin Vohidov ham qoyil qolgan. Prezidentimiz — favqulodda xotira sohibi.

— Gapingiz nihoyatda to'g'ri, Ustoz. Siz sazovor bo'lgan "O'zbekiston Qahramoni"

oliy mukofoti ham Prezidentimizning adolat-parvarligining yaqqol va yuksak namunasi.

— Prezidentimiz Shavkat Miromonovich bo'lmaganlarida, bu mukofot menga nasib etmas edi. Odam mukofotlarni kutmasdan mehnat qilishi, o'sha mehnatini halol va fidoyilik bilan ado etishi lozim. Mukofotni ham, mukofot beruvchini ham Allohning o'zi yuboradi... Bilaman, Sizning ham g'ayratigingiz jo'sh urib turibdi. Yozishdan, mehnatdan, izlanishdan aslo to'xtamang.

Ustoz andak tin olib, so'radi:

— Yetmish yillik yubiley o'tdimi yo endi bo'ladimi?

— Endi bo'ladi, ustoz. Xudo xohlasa, sentyabr oyida.

— Navoiyga ham boriladimi?

— Navoiy shahri va Karmana tumanida uchrashuvlar belgilangan.

Ustoz yana jim bo'lib qoldi-da, birozdin so'ng davom etdi:

— Ashurjon, Karmanaga borishdan 10-15 kun oldin menga aytib, ogohlantirib qo'ying. Karmanada bo'ladigan uchrashuvga boraman.

— Bu niyatingiz uchun ming rahmat, Ustoz. Allohim o'sha kunlarga yetkazsin. Sizni navoiyliklar ham, karmanaliklar ham juda-juda sog'inang. Tashrifingiz ular uchun bayram bo'ladi.

Ustoz yana davom etib so'radi:

— Uyushma kitobingizni chop etyaptimi?

— "Tanlangan asarlar" rejaga kiritilgan. Uyushmamiz raisi kitobga so'zboshi yozib berishingizni taklif qildi. Lekin Sizga aytishga jur'atim yetmadi, Ustoz.

— Unda kitobni tayyorlab topshiravering. Men so'zboshini yozib, yetkazaman. Botir Zokirov haqida yozgan "Yurak bo'ronlari"ning to'liq variantini o'qib chiqdim. Salmoqli asar bo'libdi. Ma'rifiy roman, deb to'g'ri atabsiz. Bu ulug' san'atkordan qolgan jozibador milliy san'atimiz ma'rifati targ'ib etadigan, yangi avlodlarga milliy estradamizning betakror maktabi saboqlarini beradigan ibrat kitobi bo'libdi. Kitobning har bir sahifasida Botir Zokirovning ziyoli qiyofasi namoyon bo'lib turibdi. San'atkorning boshidan kechirgan og'ir mashaqqatlari va chekkan turfa azoblari yorqin, hayotiy voqealar orqali ta'sirchan ochib berilgan. Topgan uslubingiz yaxshi va yozishga qulay. Kitobxonni qiynamaydi, tez hazm bo'ladi... Hikoyalar kitobingizni o'qiyapman. Nomini yaxshi topibsiz: "Do'ppisi yo'q dunyo". "Konvert odam" ham yaxshi,



o'qiladigan asar. U haqida ham fikrlarim bor. Odil Yoqubov, Ne'mat Aminov haqidagi kitoblaringizni ham o'qib qo'yganiman... Nasib etsa, so'zboshini tayyorlab beraman...

Ustozning meni hayajonlantirgan bu bebaho va teran fikrlari qog'ozga tushmay qolgan so'zboshining aniq rejalari edi...

Keyin ustoz suhbat orasida o'tgan yili Xorazmga qilgan ijodiy safarimizni yodga oldi:

— Xorazmdagi uchrashuvlar juda yaxshi bo'ldi. Ogohiy (ha, aynan shunday derdilar) boboning bog'i, muzeyida bo'lgan jonli suhbatlar hamon yodimda. Shoir nomidagi ijodiy maktabdagi yoshlar bilan qizg'in uchrashuvlar... Xudo xohlasa, Karmanada ham shunday samarali uchrashuvlar qilamiz.

Shu o'rinda bir savol o'z xayolimga charx uradi. Ustoz nechun Karmanani bunchalar sevadi, nechun mehr bilan sog'inadi? Bir gal Karmanada bo'lgan bir uchrashuvda: "Karmanada bebaho xazinalarning ustida yurganday bo'laman", degan edi. Har safar borganimizda Karmanani alohida bir sog'inchi va mehr bilan ziyorat qiladi. Bu sog'inchning sir-sinoati nimada ekan?!

Ustozdan bu haqda so'ray olmadim. So'rashga jur'at topmadim. Javob qiyomatga qoldi...

Ustoz bilan yurakdan bo'lgan bu samimiy, hayajonli va sog'inchi suhbatini yarim soatdan ortiq davom etdi. Bundan ustozning sog'lig'i yaxshi ekan, deb xursand bo'ldim. Gap orasida: "Shu kunlarda borib, Sizni ziyorat qilaman, ustozim", dedim. U kishi biroz hafsalasizlik bilan: "Telefonda gaplashib turibmiz-ku", dedi. Bu so'zlardan xavotirga tushib, yana niyat qildim: "Ustoz, sog'lig'ingiz yaxshimi, og'riqlar ancha bosilgandir. Xudo xohlasa, sog'ayib ketasiz".

Ustoz yana jim bo'lib qoldi. Og'ir xo'rsinshdan so'ng: "Og'riq doim bezovta qiladi. Bu shunday chidab bo'lmas og'riq, so'z bilan unga ta'rif topolmaymiz... Xayr, salomat bo'ling, Ashurjon! Xudo yetkazgan kuni albatta ko'rishamiz. Yaxshi narsalarni yozishdan to'xtamang... Oila a'zolaringizga mendan salom ayting... Karmana esdan chiqmasin..."

Ertasi Yozuvchilar uyushmasida mukofotlanganlarni qutlash marosimi bo'ldi. Ustoz bilan bo'lgan quvonch va armon suhbatini u kishining yana bir jonkuyar va iste'dodli shogirdi, shoir ukam Muhammad Siddiqqa ham aytib berdim. U ham juda xursand bo'ldi. "Aka, men ham ustozga hamroh bo'lib Karmanaga boraman", deb niyat qildi. Ikkinchi ham Allohdan ustozimizga sog'liq va umr tiladik. Oradan bir kun o'tib, 6-iyun peshindan so'ng... Yozolmayman. Qalamning joni yo'q. Til kalimaga bormaydi. Muhammad Siddiq qo'ng'iroq qildi. Ovozi juda xasta va qayg'uli:

— Aka, aytolmayman... Ustozdan ayrilib qoldik...

O'sha kuni telefonda bo'lgan suhbatimiz yarim asrlk ulug' ustozim, ma'naviy tog'im Ibrohim G'afurov bilan so'nggi vidolashuv qo'ng'irog'i ekan. O'lim hamisha haq, banda esa har doim o'zi...

Taniqli adibimiz Xayriddin Sultonning "Mutafakkir. Bashorat va Vasiyat" nomli iztirob bilan yozilgan maqolasida Prezidentimizning Ibrohim G'afurov haqidagi teran fikrlari juda o'rinni ifodalangan: **"Ibrohim G'afurov timsolidan men butun hayotini, ma'naviyat, ma'rifat ravnaqiga bag'ishlagan fidoyi, halol, kamtarin bir insonni ko'rar edim. U kishi o'zi sevgan, xlos qo'yg'an buyuk Navoiy bobomiz kabi yuragi pok, olijanob, matonatli shaxs edi"**. Bu teran

va yuksak baho Ibrohim G'afurovni yaqindan bilgan, tanigan, u kishidan saboqlar olib kelayotgan shogirdlar, muxlislar va minglab kitobxonlarning ham samimiy dil iqrordir.

Telefondagi so'nggi suhbat vidolashuv ekanini anglab, hanuz o'zimga kelolmayman. Nega shu so'zlarni yuzma-yuz gaplashmadik? Telefondagi ovoz sokin, yoqimli, lekin dardli edi. Bu mo'tabar ovoz shoshmas, ba'zi-ba'zida ehtirolarga to'lganida, biroz yuqori pardalarda jaranglar edi. Bu hayajon dardi edi.

Bu salobatli ovoz to'la dard edi. Bu adabiyotning dardi, millatning dardi edi. Hech bir zamonda tovlanmaydigan chin ziyolining chin dardi. Har bir zamonning jadingi yuragidagi boqiy dard edi.

So'nggi suhbatimizdan quyidagi dardli misralar qog'ozga tushdi:

Bir yurak zavq-shavq, quvonch uchun yaraladi,

Bir yurak kayf-safo,

ishrat uchun yaraladi,

Bir yurak g'am-kulfat, dard uchun yaraladi.

Ibrohim G'afurov kitobning chin do'sti, sadoqatli muxlisi va qadrdoni edi. O'zining aytishicha, u 6-sinfidan kitobni anglagan va umrbod u bilan qiyomatlik do'st bo'lgan — zahmatkash bog'bon serhosil bog' yaratganidek, quruvchi-usta mustahkam bino qurganidek, fazogir sayyoralarini zabt etganidek.

Ustoz tahrir ustasi, so'z zargari edi. Asarlarni, qo'lyozmalarni o'ta noziklik va sinchkovlik bilan, so'zlarning hurmatini o'rniqa qo'yib tahrir qilardi. Bu zahmatli mehnatini ayrim tahrirchi muharrirlarga o'xshab, muallifning yuziga solmas edi... Va bu ezgu ishi bilan aslo maqtanmas va minnat qilmas edi. Ro'y-rost aytay, ellik yillik ish faoliyatim davomida ustozdek zahmatkash, fidoyi, halol muharrirni ko'rmadim. U kishi tug'ma matbuotchi va noshir edi. Bu sohalarida Ibrohim G'afurov o'zining ijod maktabini allaqachon yaratgani hammamizga ma'lum.

Bu yuksak iste'dod sohibi tarjimonlarning sardori, adabiyotshunoslarning sarkori, zamonamizning yetuk mutafakkiri va O'zbekistonning chin Qahramoni edi.

U buyuk ko'ngil fuqarosi edi.

Ustoz "Zardushtning ko'ngli" mansurasida yozadi:

"Navoiy — ko'ngil, Hofiz — ko'ngil,

Konfutsiy — ko'ngil.

Hammasi — ko'ngil.

Ko'hna gil — bu ko'ngil.

Xorazmiylar ko'hna gil deydi ko'ngilni.

"Asling bilsang, obu gil..."

O, bu hassos Yassaviy...

Balki ko'ngil — Xudoning makoni...

Ahadiyat, Samadiyat,

Vahdoniyat makoni..."

Qulog'imda hamon vido qo'ng'irog'i...

Ashurali JO'RAYEV,

"Mehnat shuhrati" ordeni sohibi

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu ma'noda, uyg'oq jamiyat — barqaror jamiyatdir. O'z taqdiriga daxldor insonlar yashaydigan mam-lakatning kelajagi esa ishonchli bo'ladi.

Aslida, bu haqiqat yangilik emas. Millat taqdiri, avvalo, uning ma'rifati bilan bog'liq ekanini jading bobolarimiz bir asr muqaddam ta'kidlagan edi. Cho'ponning "Millatni uyg'otish — uyg'onganlarning vazifasi" degan so'zlarida, Ibrat domla "ulamo g'ayrat etkanda millat albatta isloh topishi"ni ta'kidlaganida, Fitrat, Avloniy, Behbudiy bobolarimiz bir zum bo'lsin uyg'oqlik mas'uliyatini e'latishdan to'xtamagani mohiyatida ana shu haqiqat, daxldorlik hissi yotadi.

Bugun mustaqillik tushunchasi yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Ilgari bu atama ko'proq siyosiy erkinlik, davlat suvereniteti yoki chegaralar daxlsizligi bilan izohlangan bo'lsa, bugun hayotning o'zi uning ma'nosini kengaytirmoqda. Chunki mustaqillik faqat bayroq yoki chegara emas, insonning qirishlar tarzida, axborotni qabul qilish madaniyatida, o'z kelajagini o'zi belgilay olish qobiliyatida va, eng muhimi, jamiyatdagi ishonch muhitida namoyon bo'ladi.

Shujihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori yurtimiz hayotida muhim siyosiy-ma'naviy voqea sifatida baholalanayotgani bejiz emas. U mustaqillikning bosib o'tilgan yo'lini qayta baholash, bugungi yutuqlarni anglash va



uning mazmun-mohiyatini yosh avlod ongiga singdirishga qaratilgan muhim g'oyaviy hujjatdir.

Mustaqillikning qadriini anglash uchun hayotimizdagi o'zgarishlarga xolis nazar tashlashning o'zi kifoya. So'nggi o'n yillikda mamlakati-mizda amalga oshirilgan islohotlar millionlab insonlar taqdirida o'z aksini topmoqda.

Bir paytlar oliygohga o'qishga kirish ko'pchilik uchun ushalmas orzu bo'lib tuyulardi. Bugun esa bir oilaning o'zida ikki yoki uch nafar farzand turli oliygozlarda tahsil olayotganini ko'rish odatiy holga

aylandi. Ilgari ba'zi joylarda "Qiz bolaga o'qishni kim qo'yibdi?", "O'qib olim bo'larmidi?", "O'qib shahar olib berarmidi?" degan gaplar quloqqa chalingan bo'lsa, bugun qizlarimiz tibbiyot, huquqshunoslik, axborot texnologiyalari, xalqaro iqtisodiyot kabi sohalarida o'qib, muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Tadbirkorlik sohasidagi o'zgarishlarga nazar tashlasak, mustaqillikning amaliy samarasi yanada yaqqol ko'rinadi. Bir vaqtlar kichik biznes boshlashning o'zi katta qiyinchiliklar tug'dirardi, bugun xususiy tashabbus iqtisodiy

QALB UYG'OQ BO'LSA...

taraqqiyotning muhim harakatlan-tiruvchi kuchlaridan biriga aylangan. Eng muhimi, odamlarda "ish izlash"dan ko'ra "ish yaratish"ga intilish kayfiyati shakllanib bormoqda. Bu esa har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ko'rsatkich. Chunki tadbirkorlik daromad manbai bo'libgina qolmay, insonning o'z kuchiga ishonishi, tashabbus ko'rsatishi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishining ham amaliy ifodasidir.

Yoki xorijda o'qish imkoniyatini olaylik. Bir paytlar jading bobolarimiz millatni taraqqiy ettirish umidida yoshlarni Germaniya, Turkiya kabi davlatlarga o'qishga yuborgan edilar. Ammo tarixning shafqatsiz sinovlari tufayli ularning ko'p orzulari ro'yogga chiqmadi. Bugungi avlod esa mutlaqo boshqa sharoitda yashamoqda. Yoshlarimiz dunyoning yetakchi universitetlarida tahsil olib, xalqaro tajriba orttirib, o'z bilimi va salohiyati bilan mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega.

Albatta, har qanday taraqqiyot yo'lida muammolar ham bo'ladi. Hayotdagi ijobiy o'zgarishlar bilan birga, jamiyat uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar ham uchrab turadi. Befarqlik, milliy qadriyatlariga loqayd munosabat, yoshlar tarbiyasidagi mas'uliyatning susayishi kabi holatlar ba'zan ochiq, ba'zan yashirin ko'rinishda namoyon

bo'ladi. Eng xavfli, bunday hollarni ko'rib ko'rmaganlikka olish, ularga nisbatan tomoshabin bo'lib qolishdir. Chunki jamiyatdagi har qanday illat vaqt o'tishi bilan umumiy kelajakka ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham faol fuqarolik pozitsiyasi bugun har qachongidan ko'proq muhimdir.

Ba'zan ijtimoiy tarmoqlarda davlat va jamiyat taraqqiyotiga nisbatan turli keskin munosabatlarga duch kelamiz. Bunday fikrlar tahlil-dan emas, hissiyotdan tug'iladi. Muammolarni inkor etish ham, ularni bo'rttirib ko'rsatish ham noto'g'ri. Jamiyat taraqqiyoti uchun tanqid kerak, ammo u yaratuvchan bo'lishi, yechim izlashga xizmat qilishi lozim.

Kuzatishimizcha, bugun dunyodagi ko'plab ziddiyatlar ilbizida ishonch inqirozi yotibdi. Inson insonga ishonmaydi, jamiyat o'z imkoniyatlariga ishonmaydi. Bu esa tashqi ta'sirlar uchun qulay muhit yaratadi. Ichki muvozanati mustahkam bo'lgan jamiyatni tashqi kuchlar izdan chiqarishi qiyin. Ammo o'z kuchiga ishonmaydigan jamiyat har qanday ta'sirga moyil bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mustaqillikni asrab-avaylash faqat davlat institutlarining vazifasi emas. U, avvalo, har bir insonning ichki pozitsiyasiga bog'liq. Agar inson o'zini mamlakat hayotidan chetda deb bilsa, u axborotni ham, voqelikni ham befarq qabul qiladi. Agar o'zini



Begdaviat ALIYEV,
falsafa fanlari doktori,
professor

shu jarayonning ishtirokchisi deb his qilsa, u har bir voqea mas'uliyat bilan munosabat bildiradi.

Shuning uchun ham, bugungi kunda jamiyatimizdagi eng muhim vazifalardan biri — daxldorlik madaniyatini shakllantirishdir. Bu madaniyat faqat qonun yoki qaror bilan yaratilmaydi. U o'zida, ta'lim muassasasida, mehnat jamoasida, mahallada va insonning kundalik hayotida shakllanadi. Inson qanday muhitda yashasa, shunday fikrlaydi.

Dunyodagi har qanday o'zgarish inson ongidan boshlanadi. Agar ong uyg'oq, fikr mustaqil bo'lsa, qalbda mas'uliyat hissi yashasa, jamiyat har qanday sinovdan munosib o'tadi. Aksincha, befarqlik va ma'naviy sustlik ustun kelgan joyda eng katta imkoniyatlar ham o'z qadriini yo'qotadi.

Shulardan kelib chiqsak, bugungi beqaror dunyoda eng katta kuch — uyg'oq insondir. O'z o'rini anglagan, mustaqil fikrlaydigan va o'z jamiyati taqdiriga daxldorlikni his qiladigan inson. Ana shunday shaxslari ko'p bo'lgan jamiyat barqaror, ertasi mustahkam bo'ladi.



ADABIY TAHLIL

XIX asr adog'i va yangi asr boshida millat ong-shuurida yuz ko'rsatgan milliy uyg'onish 20-30-yillarga kelib mustabid tuzum tomonidan bo'g'ib tashlandi. Milliy ziyolilarimizning eng saralari ma'nan, so'ng jismonan mahv etildi. Buyuk Cho'ipon "XX asr" deb atalgan to'rtligida yozganidek:

*Bu emish: bilgi – fan, hunar asri,
Bu emish: yuksalan bashar asri.
Hodisot o'yla go'stararki, bu asr
Yolg'iz: sharr va sharr va*

sharr asri!..

Bunday daromaddan maqsad taniqli aktyor va rejissyor Dilorom Karimovaning "Po'rtana (Ajdah komida)" asari haqida fikr yuritishdir.

Asar buyuk va jabrdiyda shoirimiz Cho'iponning ayovsiz, alg'ov-



OTA HAQIDA MUNGLI QO'SHIQ

dalg'ov 1920-yili yozilgan "Po'rtana" she'ri bilan hamohang, ushbu she'r asarda ko'rsatilgan va tasvirlangan voqealar yurak urishining grafik tasviri, balki kardiogrammasi yanglig'. She'ring asarda keltirilgan ilk bandi va oxirrog'idan olingan to'liqsiz misra – "Bu – mahshar, qiyomat, po'rtana!.." butun asarning badiiy-g'oyaviy va ritmik-emotsional yo'nalishini belgilab turadi go'yo.

Asarda Toshkent muzofotida yaxshigina nufuzga ega bo'lgan, insof-diyonatlil boy Ibrohim hoji, uning farzand va nabiralarning XX asr boshidan to 70-80-yillargacha bo'lgan davri tasvirlanadi. Asar to'rt qism, "Xotima" va "So'ngso'z"dan tashkil topgan, har bir qismi kompozitsion yaxlitlikka ega hamda oilaning Ibrohim hojidan tortib, uning nevaralarigacha bo'lgan vakillari o'quvchi tasavvuri va ko'z o'ngida ketma-ket namoyon bo'ladi. Lekin bir motiv borki, u asardagi butun tasvir va voqealarni halqa tarzida tutashtiradi.

"Otam Abdulmalik Ibrohimov xotirasiga bag'ishlayman" degan yozuvga monand asar og'ir tuzalmas dardga chalingan otaning kasalxonadagi ahvoli tasviri bilan boshlanib, uning o'limi bilan yakunlanadi. Ushbu motiv asarning mazmun strukturasiga uchun prolog va epilog vazifasini o'taydi.

Har bir qism aniq yuklamaga ega. Birinchi qismda prologdan tashqari, sovet hukumatining dastlabki yillari Ibrohim hoji va uning xonadoni, tanish-bilishlari taqdiri orqali ochib beriladi. Mazkur qismda Ibrohim hojidan tashqari ikki kambag'al yigit – Jo'ra va Mamatqul obrazlari esda qoladi. Jo'ra Ibrohim hojidan yaxshilik ko'rgan, buni qadrlaydi va hoji "kambag'alparvar" hukumat tomonidan qamoqqa olinganida, sobiq xizmatkorlarga bosh bo'lib, boyni hibsdan olib chiqadi. Mamatqul ham boydan yaxshilik ko'rgan, lekin u buni tez unutadi, yangi hukumatning faol arbobiga aylanib, diyonatsiz tuzumning qatag'onlariga bosh bo'ladi. U nimasi bilandir mashhur rus adibi Mixail Bulgakovning "It'yurak" qissasidagi Sharikov obrazini eslatadi. Diyonatli Jo'raqul Mamatqul tomonidan o'ldirilgach, tasvirdan chiqadi, lekin Mamatqul butun asar davomida muallifning diqqat-e'tiborida turadi. Bu personaj asarning eng yorqin salbiy obrazlaridan biri, ko'p jihatlari bilan mustabid sovet tuzumining tipik vakili va o'ziga xos razmizdir.

Nega aynan shunday palid odamlar gullab-yashnadi va tomir otdi bu davrda? Obraz yemirilgan tuzumga o'qilgan ma'naviy hukm kabi hoynahoy. Ushbu obraz talqini borasida muallif bilan bahslashish mumkin. Mamatqul qilg'ilikni qilib, talay oilani xonavayron etib, yostig'ini quritib ham, bola-baqrallari ardodg'ida qarib-churib dunyodan o'tadi. Farzand-u nabiralarning esa haliyamn ishlari "besh".

Bizga badiiy asarning ma'naviy hukmi oxiriga yetmaganday, yomonlik jazolanmay qolayotgandek tuyulmoqda. Badiiy asarda, hatto hayotda shunday bo'lgan taqdirda ham, yomonlikni jazosiz qoldirish yaramaydi. Shoh va shoir Boburning "Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir" degan fikri butkul umumiy

mavqega ega. Saodatli hayot kechirgan o'sha mamatqullarning muallif ko'rmagan, sezmagani ko'rgiliklari bo'lishi muqarrar. Shaytoni lain ularni o'z qabih yo'liga boshlar ekan, ularga va avlodlariga mudom baxtli hayot kafolatini bermaydi...

Ikkinchi qism asarning bosh qahramoni ulg'aygan, tarbiya topib shakllangan muhit, tarixiy hujjatlar asosida davrning jafokash qahramonlari Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Munavvar qori, Cho'ipon, Elbek va boshqalar ishtirokida kechgan voqealar, suhbat-u munozaralar orqali tiklanadi. Sirtan qaraganda, bu tasvir – voqealar bosh qahramon hayotiga bevosita bog'liq bo'lmagani uchun ortiqchadek tuyuladi, lekin chuqurroq qaralsa, bu qism sovet hokimiyatining dastlabki yillarida millatparvar ziyolilarimiz ongida kechgan fikr-mulohazalar, qiynoqli savollar jonli tarzda, dramatik uslubda tiklangani bilan alohida qiymatga ega ekani ayon bo'ladi. Mazkur qism ushbu jihati bilan o'sha davr o'zbek ziyolilari hayoti tasvirlangan Abdulla Qahhorning "Sarob" romanini yodga soladi. Ammo ikki orada jiddiy bir farq bor. "Sarob"da millatparvar ziyolilarimiz qora bo'yoqlarda salbiylashtirib tasvirlangan bo'lsa, "Po'rtana"da ularning ulug'vor, jabrdiyda va foje obrazlari gavdalantirilgani, nur ustiga nurdur.

Ushbu qismda "muallif"ning (qo'sh-tirmoqqa olishimizga sabab, u ham asardagi obrazlardan biri) ishtiroki nisbatan ko'proq. U tarix haqida, sovet tuzumining chin mohiyati haqida chuqur mulohaza yuritadi. Masalan: "Kommunizm g'oyasining mag'lubiyati, qizil imperiyaning sharmandalarcha qulashi hech bir saltanat halokati yuzaga keltirmagan ruhiy, axloqiy tanazzulni tug'dirdi: go'zal orzu-niyatlar masxaralandi, engzulik gumon ostida qoldi, tenglik degan tushuncha yo'qoldi. Inson ziyosi bilan emas, boyligi bilan qadrlana boshladi... Boylik tag'ini taxtga mindi. Dunyo yana bir chappasiga aylanib tushdi..." Shekspirning mashhur 66-soneti yodga tushmayaptimi, aziz kitobxon? Agar "shirin yolg'on yomon-u achchiq haqiqat yaxshi" bo'lsa, unga chidashimiz, hazm qilishimiz lozim, shekilli.

Asarning janri haqida ikki og'iz so'z. Mashhur adib va nazariyotchi olim Y.Tinyanov "Kino asoslari haqida" maqolasida: "Kinoroman bilan odatdagi roman o'rtasidagi keskin farq faqat asar materialida emas, balki uslub va tarh – bichim qonuniyatlari san'atning barcha tur va janrlari uchun yagona va birday qo'llash mumkinday tuyuladigan hamma unsurlarni kinoda qaytadan shakllantiradi", deya qayd etgan. "Po'rtana" kinoromanida ham pyesadagi kabi dialoglar, romandagi kabi tasvirlar, "muallif" nomi ostida bayon etilgan hayotiy, falsafiy fikr-mulohazalar kinoromanning borliq vujudini barpo qiladi.

Uchinchi va to'rtinchi qismlar esa bevosita bosh qahramonning quvg'indi, azobli hayotiga bag'ishlangan. Muallif otasini shu qadar sevadi, ardodlaydiki, dunyoga, voqelikka, atrofdagi odamlar, ona, buvi, amma, singil va ukaga aynan ushbu muhabbat shu'lasida baho

beradi: yo sevadi, yo nafratlanadi. Bu buvi (ona tarafdan) bo'ladi, tug'ishgan singil bo'ladi, hatto ona bo'ladi, farqi yo'q. Faqat tuqqan onasini beixtiyor kechiradi, bu ham ancha yillar o'tgach. Ko'zlari xiralashib qolgan kekxa onaning radiodan ta'sirli kuy tinglab, boladek lablari titrab, ko'zlaridan duvillab yosh oqqanini ko'rgan muallif shunday "to'kiladi": "Qalbmning bir burchagida doim saqlanib kelgan aybnomani yirtib tashladim. Men shu damdan e'tiboran onamni mutlaqo ayblamay qo'ydim". Aytish joizki, ziddiyatli esada, asarda onaning foje va badiiy go'zal qiyofasi yargalan. Bu gaplar kinoroman xotimasidan olindi. Unda asarning barcha qahramonlari hayoti o'ziga xos yakun topadi. Otaning tilab olgan yakka o'g'li, muallifning ukasi Hasaning taqdiri naqadar ta'sirchan, deyish – o'ng'ay.

Kitobimga kelsak, uni "Mehr" deb nomladik, yigirmata hikoyam e'lon qilindi. Bu hikoyalar yozilishi, to'planishi va kitob holiga keltirilishiga ijod maktabidagi muhit, ustozlar e'tibori sabab bo'ldi. Ammanning qizi Nozimaning ham kichik hikoya va maqolalari "Tong yulduzi" gazetasida e'lon qilinyapti. Ikkinchining ham rejalarimiz, niyatlarimiz ulkan. Katta asarlar yozishni niyat qilganman. Qodiriy nasabini oqlashga astoydil harakat qilaman.

– Har qanday ijodkor ilk mashqini yozish uchun qo'lga qalam tutgan lahzanini unutmaydi. Siz ijodni qanday boshlagansiz?

– Olmazor tumanidagi 326-sonli umumta'lim maktabining 4-sinfida o'qirdim. Sinfidoshim Oybek uyga berilgan vazifani bajarmagani uchun partadoshidan ko'chirib oldi. Lekin ustoz "Kim uyga berilgan topshiriqni bajarmagan bo'lsa, o'rindan tursin", deganida u ham turdi. O'qituvchi daftari ko'rganida, vazifa bajarilgan turardi. Shunda u mard bo'lib aybini tan oldi: "Mehnatni boshqacha birov qilgan, men tayyorini ko'chirdim". Bu menga ta'sir qildi va shuni qog'o'zga tushirib, ustozimga ko'rsatdim.

Ustoz onamni chaqirib, "O'g'lingiz hikoya yozibdi", deb berib yuborganda onam o'z navbatida dadamga yetkazgan. Dadam quvonib, o'zining ustozini deb biladigan taniqli yozuvchi Tohir Malikaniga olib bordi. U kishi ham yozganimni o'qidi va ko'p varaqlik katta daftar bilan antiqa ruchka sovg'a qildi. Bolalarga atab chiqarilgan kitoblarni ko'proq o'qishim kerakligini aytdi. O'zimdagi yo'q xursand bo'ldim. Ketayotganimizda: "Bolam, bunga hikoyalar yozing. Keyingi safar daftarni to'ldirib keling", deb tayinladi.

Hech qancha o'tmay, birinchi mashqim "Tong yulduzi" gazetasida "Kamchilgimni tan oldim" sarlavhasi ostida e'lon qilindi. O'sha

KELAJAK OVOZI

“Yaxshi inson bo'lgim keladi”

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Samariddin QODIRIY bilan suhbat

– Samariddin, Siz mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriyga evara bo'lasiz. Habibullo Qodiriyning o'g'li Sherkon Qodiriyning kenja farzandisiz. Katta bobongizning ilk ijodiy ishi yigirma yoshida matbuotda e'lon qilingan ekan. Sizning esa o'n sakkiz yosh arafasida birinchi kitobingiz nashr etildi. Tahririyatimiz tomonidan o'tkazilgan "Jadid bobomga maktub" tanlovida maktubingiz ijobiy baholangan edi. Otangiz va bobongiz ijodida xotiranavislik ustunlik qiladi. Siz esa nasrda qalam tebratar ekansiz. Buning sababi nimada?

– Maqola va hikoyalarimning gazetalarda chop etilayotgani, yosh bo'lishimga qaramay, ilk kitobimning chiqishini uyimizdagi ijodiy muhit va yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar tufayli, deb bilaman. Qondan o'tgan tomonlari ham bor, albatta. Lekin undan juda katta mas'uliyat tushadi yelkama. Chunki "bobosiga tortgan" degan e'tirofga munosib bo'lish xayoli yozishga qo'ymaydi. Shu bois, buni qiziqish yoki havas deyish – o'ng'ay.

Kitobimga kelsak, uni "Mehr" deb nomladik, yigirmata hikoyam e'lon qilindi. Bu hikoyalar yozilishi, to'planishi va kitob holiga keltirilishiga ijod maktabidagi muhit, ustozlar e'tibori sabab bo'ldi. Ammanning qizi Nozimaning ham kichik hikoya va maqolalari "Tong yulduzi" gazetasida e'lon qilinyapti. Ikkinchining ham rejalarimiz, niyatlarimiz ulkan. Katta asarlar yozishni niyat qilganman. Qodiriy nasabini oqlashga astoydil harakat qilaman.

– Har qanday ijodkor ilk mashqini yozish uchun qo'lga qalam tutgan lahzanini unutmaydi. Siz ijodni qanday boshlagansiz?

– Olmazor tumanidagi 326-sonli umumta'lim maktabining 4-sinfida o'qirdim. Sinfidoshim Oybek uyga berilgan vazifani bajarmagani uchun partadoshidan ko'chirib oldi. Lekin ustoz "Kim uyga berilgan topshiriqni bajarmagan bo'lsa, o'rindan tursin", deganida u ham turdi. O'qituvchi daftari ko'rganida, vazifa bajarilgan turardi. Shunda u mard bo'lib aybini tan oldi: "Mehnatni boshqacha birov qilgan, men tayyorini ko'chirdim". Bu menga ta'sir qildi va shuni qog'o'zga tushirib, ustozimga ko'rsatdim.

Ustoz onamni chaqirib, "O'g'lingiz hikoya yozibdi", deb berib yuborganda onam o'z navbatida dadamga yetkazgan. Dadam quvonib, o'zining ustozini deb biladigan taniqli yozuvchi Tohir Malikaniga olib bordi. U kishi ham yozganimni o'qidi va ko'p varaqlik katta daftar bilan antiqa ruchka sovg'a qildi. Bolalarga atab chiqarilgan kitoblarni ko'proq o'qishim kerakligini aytdi. O'zimdagi yo'q xursand bo'ldim. Ketayotganimizda: "Bolam, bunga hikoyalar yozing. Keyingi safar daftarni to'ldirib keling", deb tayinladi.

Hech qancha o'tmay, birinchi mashqim "Tong yulduzi" gazetasida "Kamchilgimni tan oldim" sarlavhasi ostida e'lon qilindi. O'sha



paytdagi baxtiyorligimni so'z bilan tasvirlab bera olmayman. Lekin bir narsadan hayron edim: hikoya ostida "Qodirov Samariddin" deb yozilgandi. Dadam buni "Qodiriy" deb taxallus qo'yishimga hali a-a-ancha borligi bilan izohladi. Shunda men kelajakda nimaga erishsam, Qodiriy bobomning hurmati ortidan emas, o'z kuchim, harakatim va iqtidorim bilan erishishim zarurligini angladim.

– Bir paytlar tojikistonlik bir kishi "O'tkan kunlar" romanini boshdan oxir yod bilishi haqida o'qigandim. O'tkir Hoshimov ham sportchi yigit romandan sahifa-sahifa yod aytib berganini esdaliklarida qayd etgan. Yangi va boshqacha fikrlaydigan avlod vakili sifatida katta bobongizning asarlarini qay darajada mutolaa qilasiz?

– 10-11 yoshlar edim, bobomizning mashhur "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarini o'qimoqchi bo'lganimda, dadam: "O'g'lim, Qodiriy asarlarini o'qishga hali biroz yoshlik qilasan. Bu adabiyot durdonalarini o'qish uchun ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik kerak", degan edi.

2021-2022-o'quv yilida ulug' niyatlar bilan Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabiga o'qishga kirdim va bobomiz ijodini o'rganishga qiziqishim yana-da ortdi. Chunki bu yerda tengdoshlarim Qodiriy asarlari yuzasidan qizg'in bahs-munozaralar qilishardi. Men esa ular bilgan narsalarni hali bilmasdim. Bir hisobdan bu ham yaxshi bo'lgan ekan. Chunki bu yerda ikki yil ta'lim olib, kitobxonlik madaniyatimni shakllantirdim. Ikki romanni esa intizorlik torta-torta, o'zimni tayyor his qilgach, mutolaa qildim. Haligacha ikki buyuk asar shavqi va dardi meni tark etmagan.

Katta bobomizning hamma yozganlarini topib o'qishga harakat qilayman. Oilaviy yig'inlarimizda ham suhbatlarimiz ko'pincha u kishining asarlari haqida bo'ladi. Ayniqsa, "O'tkan kunlar"ni o'qiganimda, xuddi katta bobomning og'zidan eshitganday his uyg'onadi. Shuning uchun tez-tez xoli qolib, ichki bir sog'inish va qo'mash bilan romandan o'zimga yoqqan boblarni xatm qilaman.

– Qodiriy ilk adabiy faoliyatini "gazetalarni o'qub" boshlaganini yozib qoldirgan. Siz esa axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt taraqqiy etgan davrda yashayapsiz. Matbuot qayqlashga vaqt va xohish topiladimi?

– Albatta, topiladi. "Tong yulduzi" gazetasida chiqayotgan she'r-lar, hikoyalar, maqolalarni muntazam o'qib boraman. Chunki o'zimga tengdosh yigit-qizlarning ijodini kuzatishim shart, deb hisoblayman. Bundan tashqari, dadam "Jadid" gazetasining har bir sonini o'qib boradi, yaxshi maqolalarni o'qib chiqishimiz uchun tavsiya qiladi. "Yangi O'zbekiston" gazetasini ham kuzatib boramiz.


– Javob berishingizni kuzatib, "so'z so'zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak", degan satrlar yodingma tushdi. So'nggi savol: adabiy maydondagi kelajagingizni qanday tasavvur etasiz?

– Boya aytganimday, birinchi ijodiy ishimni yozuvchi Tohir Malikko ko'rsatganmiz. Keyin ham u kishining suhbatiga ko'p marta bordik. Tohir Malik har gal menga alohida e'tibor qaratar, dadam qolib men bilan suhbatlashishga vaqt ajratar, yozish qobiliyatini rivojlantirishim uchun ruhlantirar edi. Hozirda respublikamizning bolalar va o'smirlar nashri bo'lgan "Tong yulduzi" gazetasi bosh muharriri Feruza Odilova menga havaskorlik mashqlarimni tahrirlash va chop etishda ko'pdan ko'p yordam beryapti. Gazeta sahifalarida yozganimni minglab tengdoshlarim o'qiydi. O'zimni ularning oldida yaxshiroq yozishga burchliman, deb bilaman.

Niyatim – oliy o'quv yurtiga kirib, jadiclarimiz istagandek zamonaviy ilmlarni o'rganish va Vatanimga foyda keltirish, bobolarimizga har tomonlama munosib bo'lish. Abdulla Qodiriyning evarasi ekanim, ham menga, yozganlarimga shunchalik mehr ko'rsatgan ustozlarim ishonchini oqlashim uchun yaxshi inson bo'lishim kerak, deb o'ylayman. Meni Qodiriy bobomga qiyoslashsa yoki u kishidagi bo'lishimni aytishsa, rost, juda xijolat bo'laman. Men ota-o'g'il Yusufbek hoji va Otabekday millatparvar, vatanparvar, ziyoli inson bo'lishni istayman. Katta bobom qoralagan illatlardan uzoq bo'lishga harakat qilaman. Qolganini vaqt ko'rsatsa kerak.

– Samariddin, Sizning ezgu niyat va maqsadlaringizga yetishgizda tilakdoshimiz! O'qishingiz va ijodingizda omad tilaymiz!

Muhayyo RUSTAMOVA yozib oldi.



“Doimo harakatda bo'lish kerak. Chunki, to'xtaganning o'tirgisi kelar. O'tirganning yotgisi, yotganning uxlagisi kelar.

Muhammad XORAZMIY

”

Suvon MELI, filologiya fanlari nomzodi



O'Y

Har bir xalqning ijtimoiy ongi mustaqil bo'lmasa tili – duduq, ilm-fani – yetaklama milliy ishlab chiqarishi achinarli holatda bo'ladi. Ijtimoiy ongning poydori bo'lishi esa uzoq davom etadigan jarayon. Men, kasbim sohasidan kelib chiqib, ijtimoiy ong oynasi bo'lgan til borasidagi ba'zi kuzatuvlarimdan kelib chiqqan savollarni va mulohazalarni bo'lishmoqchiman. Ko'plashib ularga javob topish, “oyna” yuzidagi dog'larni tozalash vaqti kelmadimikan?

Ikki asrdan ziyod davom etgan istibodot ta'sirimi yoki o'zbek tilini yaxshi bilmaslik oqibatimi, har holda ruschadagi tayyor ifodalarni hijjalab o'g'irib foydalanish hamon davom etamogda.

“Я думаю, что”ни “menimcha” demay, “men o'ylaymanki” deymiz. “Yashang”, “kam bo'lmang”, “baraka toping”, “otangizga rahmat” kabi o'ntacha so'z bor, ammo “большое спасибо”ni izini sovutmay “katta rahmat”, deb qo'yamiz. “Хочу поправить вас”ni “muborak bo'lsin” yo “qutlug' bo'lsin” deyish o'rniga, “sizni tabriklamoqchiman” deymiz, “vsem privet”ni “assalomu alaykum hammaga”, “с глубоким уважением”ni “chuqur hurmat bilan” deb aytamiz.

Bunaqa tayyor ifodalar ozmun-chami? Tokay biron chaynagan tayyor luqmani yutamiz?

Harbiylarning “chest” berishini oling. Qadimda Yevropa xalqlarida biron ulug' odam huzurida tiz cho'kib yerga bosh qo'yilgan (reverans), keyinroq boshni yerga enkaytirib, shapkasi yerga urib, hurmat izhor qilishgan. Asrlar osha u yana ixchamlasha borib, bosh kiyimini qo'lga olish, yanada keyin qo'lini shapkaga tekizish va pirovardida qo'l uchini shapkaga yaqin olib borib (g'oz turgan holda) salom aytish shakliga kelgan.

Buning o'zbekchasi qanday bo'ladi? Axir, ulug'lar oldida boshyalang turmas edik, boshga

do'ppi kiyardik. Demak, “chest” ham bermas edik. Bizdagi qoida o'ng qo'lni ko'krakka qo'yib salom berish, ta'zim qilish bo'lgan. Harbiylar ham amir oldida shunday qilgan. Har elning tutumi o'ziga aziz. Shunday ekan bu masalani ham o'ylab ko'rish kerak: chakkaga yetgan kaftimiz ko'krakka yetmaydimi?


Bizning yurtlarni “Sharq”, “Sharq mamlakatlari” deyishadi. O'zimiz ham iftixor bilan “Sharqdan kelayotirman” deb aytamiz. “Sharqona iltifot”, “sharqona odob”, “sharqona madaniyat”, “sharqona mentalitet” kabi atamalar bor, deb o'zimizni yelpiyimiz. Qayoqqa qarasang – Sharq.

Tavba, qanaqasiga biz “Sharq” bo'laylik? Masalan, Yaponiyadan g'arbda yashaymiz-ku. O'rol-u Sibirga qaraganda “Janub”miz, Afg'oniston-u Hindiston uchun “Shimol”miz. Faqat Kavkaz, Eronning sharqidamiz, unga nisbatangina sharqdamiz. Nega unda, hammayoqda “Sharq”?

Osiyoni Sharq deb atash bizga XIX asrning so'nggi choragida ruslardan kirib keldi, bizga ham majburan singdirildi. Ruslar bu tasnifni inglizlardan olgan. Yevrosentrizm deb atalgan bu qurilma dunyoga Yevropadan turib nazar tashlashni taqozo etadi, dunyoni o'zi turgan nuqtadan “G'arb”ga, “Sharq”ga, “Shimol” va “Janub”ga taqsim qiladi.

Saudiya Arabistoni, Misr, Turkiya, Eron, BAA, Iroq, Falastin, Suriya mamlakatlari Yevropaning sharqida, oraliq nisbatan yaqin bo'lgani uchun u yerlarni “Yaqin Sharq” deyishadi. Biroq o'sha “Yaqin Sharq” bizdan sharqda emas, naq g'arbda, buning ustiga, 4,5-5 ming chaqirim olisda-ku? O'shandayam “Sharq” bo'laveradimi, baribir “yaqin” deyaveramizmi? Ajabki, arablarda ham shu gap: “Yaqin Sharq” bu tilda “ash Sharq al vasat” deb yozilaveradi.

Ozərbayjon, Gurjiston va Armaniston yerlarini ruslar “Закавказье” (Kavkazning naryog'i) deb atashadi. Chunki Rossiyadan turib boqsangiz, o'rtada Kavkaz tog'i bor. Ammo biz yoqdan turib boqqanda, u yurtlar Kavkaz oldida-ku? Yoki “Закаспий” deganda nimani anglashimiz kerak, bu joylar Kaspiy dengiziga yetmay,



IJTIMOIY ONG OYNASI

undan berida bo'lsa? Bunaqa misollar to'lib yotibdi.

Aslida, Yer kurrasining qandaydir markaziy nuqtasi mavjud emas: istalgan nuqtaning Arktika tomoni shimol, Antarktida tarafi janub, kunbotar yog'i g'arb va kunchiqar sari sharqdir.

Darvoqe, biz “shimoliy / janubiy kenglik”, “sharqiy / g'arbiy uzunlik” degan atamalarni inkor etishga, ular orqali biron maskanning koordinatlarini barcha uchun anglashilari tarzda ko'rsatish imkoniyatini barbod qilishga chaqirayotganimiz yo'q. Bu, masalan, matematikani inkor etib, yangi hisob ilmini boshlash kerak, deganday mantiqsizlik bo'lar edi.

Yevrosentrizm Yevropa qadriyatlarini, tarixi, madaniyati va turmush tarzini ideallashtiradi. Hatto jahon tarixi ham Yevropa tarixi o'Ichami (“qadimgi zamon”, “o'rta asrlar”, “yangi davr”) orqali talqin etiladi, boshqa mintaqalar o'tmishi ham ana shu atamalardan kelib chiqib o'rganiladi.

“O'rta asrlar” degan so'zni hamma eshitgan. Qaysi davr u? Rim imperiyasi qulashidan kapitalizm boshlangunicha, ya'ni VI-XVI asrlar oralig'i Yevropada “o'rta asrlar” deyiladi. Ammo bizda Rim imperiyasi ham, kapitalizm ham bo'lmagan-ku.

Endi, hozir hamma shunga o'rgangan, uni rad etsak, tushun-

JAHON AYVONIDA

NOQONUNIY MUXLISLAR OGOHLANTIRILDI

Futbol bo'yicha Jahon chempionatiga kelgan xorijiy muxlislarning AQSHda noqonuniy qolishi immigratsiya xizmatlarining e'tiboriga tushadi. Bu haqda AQSH Ichki xavfsizlik vazirligi “RIA Novosti”ga ma'lum qildi.



Vazirlik xorijlik mehmonlarni kelgusida qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun ehtiyotkor bo'lishga va hujjatlarni rasmiylashtirishni oldindan rejalashtirishga chaqirdi. Idora vakili o'zlarining vazifasi har bir muxlis uchun “to'liq xavfsizlik sharoitida unutilmas taassurotlar”ni ta'minlashdan iboratligini ta'kidladi.

QAT'IY MIGRATSIYA QONUNI

Yevropa parlamenti 17-iyun kuni Yevropa ittifoqida qolish huquqiga ega bo'lmagan migrantlarni majburiy qaytarishni tezlashtirishga qaratilgan qonunni ma'qulladi. Bu haqda “Euronews” xabar berdi.



riga ittifoqqa a'zo bo'lmagan davlatlar bilan kelishuvlar asosida ularning hududida deportatsiya markazlarini tashkil etish imkonini beradi.

URUSH TO'XTADI



memorandumini elektron shaklda imzoladi.

AQSH prezidenti Donald Trump va Eron prezidenti Mas'ud Pezeshkiyon urushni tugatish bo'yicha o'zaro anglashuv

Bu haqda “Al Jazeera” xabar berdi.

Har ikki tomon ham kelishuv kuchga kirganini aytmoqda. Prezident Donald Trump Fransiyaning Evian-le-Ben shahrida bo'lib o'tgan G7 sammitida ishtirok etayotganda hujjatni rasman imzolagan.

EBOLA TARQALISH HUDUDI KENGAYISHI MUMKIN

Yaponiyalik olimlar tomonidan o'tkazilgan matematik modellash tirish natijalariga ko'ra, Afrikada Ebola virusini yuqtirgan shaxslar 30 kun ichida yuqori ehtimol bilan Yevropa va Osiyoning yirik tranzit aeroportlariga yetib borishi mumkin.




Bu haqda “medRxiv” portalida e'lon qilingan Ryo Kinosita, Motoi Sudzuki va Daisuke Yoneekining tadqiqotiga

tayanib, “Izvestiya” gazetasi xabar berdi.

Tadqiqot Kongo Demokratik Respublikasi va Ugandadan virus tashuvchilari foydalanishi mumkin bo'lgan aviatsiya yo'nalishlari tahliliga asoslangan. Olimlar fikricha, bir oy ichida virus yuqtirgan shaxslar Belgiya, Fransiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiya kabi yirik xalqaro transport markazlariga yetib borishi mumkin.

“TIKTOK” TAVIQDAN CHIQADIMI?

Qirg'iziston Davlat soliq xizmatidagi Albambet Shikmatov Qirg'izistonda “TikTok”ni taqiqdand chiqarish tarafdori ekanini ma'lum qildi va raqamli platformalarda mahalliy mualliflarning daromad topishi uchun sharoit yaratish zarur deb hisoblashini bildirdi.



Bu haqda u jurnalistlar va bloggerlar bilan kreativ industriya vakillarini soliqlardan ozod qilishni nazarda tutuvchi soliq islohoti

muhokamasidan so'ng aytib o'tdi.

U zamonaviy raqamli platformalar iqtisodiyotning muhim qismida va davlat yordamiz mustaqil ravishda kontent yaratib, daromad topayotgan yoshlar uchun tirikchilik manbayiga aylanganini ta'kidlagan.

KUZATUV

“JAVOBI BITTA TO'N, BITTA NON EDI”



Har qanday jamiyatning o'zak asosini oila tashkil qiladi. Oila institutining barqarorligi insoniy jamiyatning tayanch ustunlaridan biridir. Hatto, yovvoyi tabiatda ham oila bo'lib yashash chumolilar, asalarilar, sherlar, bo'rilar, jonivorlarning barcha turlarida keng tarqalgan. Afsuski, bugun ayrim xabarlariga ko'ra, yurtimizda oilani saqlash bilan bog'liq holatlar anchayin xatarli tus olmoqda ekan: “2025-yilda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ajrashish bilan bog'liq 70 535 ta ish ko'rilib, 37 544 tasi qanoatlanirildi. Bu turdagi ishlar soni 2024-yilga nisbatan 6 692 taga, qanoatlanirilgan da'vo talablari esa 5 327 taga ko'paydi” (Internet xabari).

Xo'sh, bunga sabab nima? Albatta, ajrashishlar mutlaqo yuz bermagan davrlar deyarli uchramaydi, ammo gap uning oshib borayotgan miqdorida. Avvalo, er-xotining bir-biriga, farzandlariga mehruhahabbatli bo'lishi oila mustahkamligini ta'minlaydi. Bir-birining, yaqinlarining fe'lliga, turmushning mushtlariga toqatli bo'lish oson emas. Bu ko'nikma yillar osha orttiriladi. Elda bekorga “Erning etigini yechish osonmas”, deyilmagan.

1970-yillari ustoz Asqad Muxtorning bir she'ri oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan edi:

Javobi bitta to'n, bitta non edi,

Qandoq tirikchilik qilamiz, xotin?

Turmush yaxshilangani, osonlashgani sari o'tgan qiyinchiliklar, yetishmovchiliklar esdan chiqqa boshlaydi. Natijada, toqot ko'rg'oniga darz tushadi, yemirilish boshlanadi. Shoir bu she'rida o'sha paytlari turmush tarzi talablari ortib borayotgani, ilgari non-u to'ndan iborat oddiylik o'rnini

chalar buzilib ketadi, deguvchilar topilsa ham ajab emas. Ammo ko'ylak kiyganda birinchi tugmani xato qadasangiz, to boshqatdan qadamaguningizcha keyingilari ham shu zaylda noto'g'ri bo'lib ketavergani kabi, yanglishish ming yilda ham to'g'ri bo'lib qolmaydi, yanada ko'payib-ortib boraveradi.

Biz – O'zbekistonmiz, Markaziy Osiyomiz. Qandaydir mavhum Sharqda emas, Osiyoning o'rtasida yashaymiz. X-XI asrlardagi birinchi Uyg'onish va XIV-XV asrlardagi ikkinchi Uyg'onish shuning uchun ham ro'yobga chiqqanki, barcha sohalarida, jumladan, ilm-fanda ham “dunyoning peshravi biz”, deb bilingan, shu salohiyatni ushlab turishga harakat qilingan.

Butun dunyo xalqlari boshqalarga o'zidan kelib chiqib baho beradi. Yigirma besh asr avval bu yerni Aleksandr Makedonli “Transoksiana” (Amudaryo ortidagi yurt) deb atagan. U necha asr ilmiy tushuncha hisoblangan. Keyin esa arablar diyorimizni “Movarounnahr” (Amudaryoning naryog'i) deb atashgan. Ammo Vatanimiz Amudaryoning berigi yog'ida-ku? Tarixni yozishda o'zimiz baholab, o'zimiz nom bermaymizmi?

Yana bir tushuncha haqida gaplashsak. Rus tilida shahar, qishloq, tuman, viloyat va o'lkalar ko'pincha suv manbaidan kelib chiqib nomlanadi. Masalan, Moskva shahri shu nomli daryo bo'yida bo'lgani uchun shunday atalgan. Rossiyada Amur, Moskva, Voronej, Irkutsk, Kostroma, Murmansk, Penza, Samara kabi juda ko'p viloyatlar nomi daryoning atalishidan olingan. Agar shunday joylar suv boshida bo'lsa – Верхнеуралск, o'rtarog'ida – Среднеколымск, etagida joylashgan bo'lsa – Нижнекамск, Нижневартоск kabi nom qo'yiladi.

Chor hukumati mintaqamizni bosib olgach, bu yerdagi joy nomlarini ham daryolar nomi bilan atashga tushdi: Сыр-Darinskaya, Semirechinskaya kabi oblastlar tashkil etildi. Sovetlar esa yanada “ichkariroqqa” o'tib, yurtimizni o'z odatlariga nomladilar: Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo degan viloyatlar tuzildi. Axir,

otalarimiz bu joylarni Qarshi der edi, Termiz deb tilga oldirdi, Mirzacho'l deb atar edi-ku? Nima, Mirzacho'l desak, yana biyobonga aylanib qoladimi? Birgina Toshkent viloyatining o'zida Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq tumanlari bor. Aslida esa hech o'zbek bo'lganmi unday atagan emas. Yangibozor degan, To'ytepa degan, Do'stobod deb nom bergan.

Negadir dunyodagi davlatlar, shaharlar, umuman, geografik nuqtalarni ruschada qanday yozilsa, o'shanday olamiz aksar. Qarang, yahudiy tilida Telaviv shahri Tel-Aviv deb ajratilmaydi. Asl O'rol tog'ini Ural deyapmiz. Xo'sh, nima sababdan bular ruscha imlogo muvofiq bo'lishi kerak? Axir ruslar Qo'qonni o'z talaffuziga moslab Kokand deydi va bu to'g'ri-ku.

Turkmanlar, ozarbayjonlar Toshkentni Dashkend deb, o'z lahjasiga moslaydi. Biz nega Ashxobodni Ashgabat, Bokuni Baku, Olmaotani Almati, Chikmentni Shimkent, Ergash-tomni Irkeshtam shaklida bityapmiz?

Bemorlar yotadigan joy shifoxona edi. Biroq ruschaga taqlidan, kasal-xona deyish rasm bo'ldi. Ruslarda “bolnitsa”-da. Bu so'z “больной” (kasal)dan olingan. Axir, shifoxona so'zida “shifo”, ya'ni sog'ayishga ishora bor-ku.

Nazarimizda, til siyosatini belgilash va bu boradagi yo'nalishlarni aniqlashda hal qiluvchi omil – o'zbekcha talaffuz so'zligi, milliy o'ziga xosliklarning yetakchi qilib belgilanishi bo'lishi kerak. Bizga ozmi-ko'pmi ma'lum bo'lgan aksar tillarda bu tutum prinsip darajasida turadi.

Yer betini tirnab urug' sepih yo bir-ikki qarich chuqur kovlab nihol qadash qayda-yu, chuqur ag'darib ekin ekish, bir gaz keng-mo'l qazib daraxt o'tqazish qayoqda! Ijtimoiy ong vaqti-vaqti bilan o'shanday chinakam ishlovga muhtoj bo'lib qoladi. Gap dunyoga o'zbek ko'zi bilan boqish, olamni o'zbek tafakkuri bilan idrok etish haqida boryapti. Ana shu boradagi oqsashlar aytilyapti.

Zuhriddin ISOMIDDINOV



ETIKDO‘Z VA ETIK KIYGANLAR

1938-yil 8-oktyabr kuni SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkent shahridagi yig‘ilishida 40 nafar fuqaro ustidan otuv hukmi chiqarildi. “Bir nafas olg‘ulik muddat”da qirq inson taqdiri qiyildi. O‘sha mash‘um ro‘yxatda asli qo‘qonlik bo‘lgan 34 yoshli Abbosxo‘ja Boboxo‘jayev ham bor edi...

Abbosxo‘ja Boboxo‘jayev 1919–1921-yillarda otasi qabatida etikdo‘z ustaga shogird tushib,



Abbosxo‘ja Boboxo‘jayev (1904–1938)


Qo‘qonda harbiy etikdo‘z bo‘lib ishladi, so‘ng shahardagi Markaz uyushmasi va mehnatni muhofaza qilish ustaxonalarida kosiblik bilan shug‘ullandi. Yigirmanchi yillar boshida Turkistonda yangi kadrlarga ehtiyoj ortib borar ekan, hunar o‘rganib yurgan yoshlar endi savod chiqarishga, bilim olishga intildilar. Abbosxo‘ja ham shu avlod vakili sifatida 1923–1925-yillarda savodsizlikni tugatish maktabida o‘qidi. 1925-yilning oktyabrida Toshkentdagi O‘rta Osiyo harbiy

maktabining artilleriya bo‘limiga qabul qilinib, 1929-yilgacha tahsil oldi. Zukko yigit tez orada mas‘ul lavozimlarga ko‘tarila boshladi. Avval Toshkent shahrida qishloq xo‘jaligi ishchilari okrug uyushmasi raisi o‘rinbosari (1929–1930), keyin O‘rta Chirchiq rayon ijroiya komiteti raisi o‘rinbosari etib tayinlandi. 1931-yildan Xatirchi rayon partiya komitetining mas‘ul kotibi, 1932-yildan Piskent rayon partiya komitetining birinchi mas‘ul kotibi vazifalarida faoliyat yuritdi.

O‘ttizinchi yillar boshida rahbarlar va mahalliy amaldorlar uchun oson kechmadi. Markaz yana ham ko‘proq paxta talab qilardi. Bu talab ortida esa rayon rahbarlarining tinchligi, hatto taqdiri turardi. Chunki reja bajarilmasa, ayblov kimningdir chekiga tushishi tayin edi. Abbosxo‘ja Boboxo‘jayev tuman rahbari sifatida bu bosimni o‘z tanida his qilardi. Rejalar, hisobotlar, yig‘ilishlar bir-birini quvib kelar, bugun maqtalgan rahbar ertaga qattiq tanqid ostida qolishi hech gap emasdi.

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, 1932-yili mablag‘larni safarbar qilish rejasiga to‘liq bajarilmagani uchun Boboxo‘jayevga hayfsan beriladi. Oradan ikki yil o‘tib, paxta dalalarini shudgorlash, yig‘im-terimni tashkil etish, g‘alla yetishtirish ishlarini muvofiq-lashtirishdagi kamchiliklar uchun yana tanqid ostida qoladi. Bugun bu qaydlar oddiy xizmat hujjatlaridagi navbatdagi baholar bo‘lib ko‘rinishi mumkin, biroq bir qarashda xo‘jalik ishlariga oiddek tuyulgan bunday qaydlar oradan ko‘p o‘tmay mutlaqo boshqacha ma‘no kasb etib, qatag‘on davri tergovchilari qo‘lida siyosiy ayblovlarga ulanib ketgani haqiqat.

1937-yilning 13-sentyabrida O‘zbekiston Kompartiyasi Mar-




kazi Komiteti byuerosida Piskent rayon partiya komiteti birinchi kotibi masalasi muhokama qilindi. Oqibatda u “antipartiyaviy ishlar”, “aksilingqilobiy unsurlar bilan aloqa” va “maishiy buzqlik”da ayblanib, lavozimidan chetlatiladi. Ikki oycha vaqt o‘tmay, Boboxo‘jayevni hibsga olish haqida qaror chiqariladi. Maxsus idora tayyorlagan hujjatlarda u “tugatilgan millatchi aksilingqilobiy tashkilot a‘zosi”, “Fayzulla Xo‘jayev bilan yaqin aloqada bo‘lgan

shaxs”, “Piskent rayonida millatchi aksilingqilobiy ishlarni boshqargan rahbar” sifatida tavsiflanadi va O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining ichki qamoqxonasiga tashlanadi.

1937-yil 1-dekabrda tasdiqlangan qarorda u Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jayevning yaqin kishisi sifatida ko‘rsatiladi. Tergovchilar talqiniga ko‘ra, Abbosxo‘ja Boboxo‘jayev O‘zbekistonni Ittifoqdan ajratib olish va uning o‘nida burjua davlatini qurishni maqsad qilgan tashkilot a‘zosi bo‘lgan... 1938-yil 7-oktyabrda tayyorlangan ayblov xulosasi yanada og‘irlashtiriladi. Unga Toshkentdagi millatchi aksilingqilobiy tashkilot markazi bilan aloqada bo‘lgani, Piskentda qo‘zg‘olonchi tashkilot tuzgani, Abdurashid Sattorov va Karim Abdullayev kabi shaxslarni mazkur tashkilotga jalb qilgani haqida ayblar qo‘yiladi.

Ayblov xulosasida xo‘jalik sohasiga oid da‘volar ham keng o‘rin olgan bo‘lib, Boboxo‘jayev go‘yo umumiy yer maydonining 3 foizi miqdorida paxtani yashirinchka ekib, 1936-yili yana qo‘shimcha 100 gektar yerga paxta ektirgan, shu orqali davlat mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirgan. Hatto Piskent pillachiligiga zarar yetkazish maqsadida 2 mingdan ziyod tut daraxtining qo‘porib tashlanishi ham uning bo‘yniga ilinadi...



“Hech qaysi tabib toliqqan vujud va azob chekkan qalb uchun umidechalik dori topib berolmaydi.

Stefan SVEYG



Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor

O‘sha kunioy “ish” sudga oshiriladi. Biroq ertasi kuni bo‘ladigan sud uchun na guvohlar chaqiriladi, na himoya uchun imkon beriladi. Hamma narsa yopiq eshiklar ortida hal qilinadi. Boboxo‘jayev o‘ziga qo‘yilayotgan ayblarni harchand rad etishga urinmasin, so‘ngso‘zi yoki keltirgan vajlari ish taqdiriga ta‘sir ko‘rsata olmaydi. Shu kuni kechqurun...

Abbosxo‘ja Boboxo‘jayevning nomi ham minglab qatag‘on qurbonlari qatorida arxiv jildlariga ko‘mlib ketdi. Oradan yigirma bir yil o‘tib, 1959-yil 28-mayda tergovda asos qilib olingan ko‘rsatmalar majburan uyushtirilgani, ish materiallaridagi “dalillar” asossiz ekani aniqlandi.

Marina Svetayevaning shunday satrlari bor: “Etiklarni olib ketgandir iblis. Endi qo‘rqinchlidir – etigi borlari” Ha, katta terror avj olguncha ham, o‘sha paytda ham, keyin ham xalqning oyog‘i tuzuk-quruq poyabzal ko‘rgani yo‘q. Ammo qatag‘on mashinasi malaylari ovozi yurakni larzaga soluvchi etiklarda ne-ne taqdir-larni yanchib borardi. Asli etikdo‘z bo‘lgan Abbosxo‘janing hayotiga ham ana shu etik kiygan jallodlar nuqta qo‘ydi.



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Said G‘ani Abduqayumov – 1884-yil Toshkent shahridagi Sebzor dahasida, savdogar oilasida tug‘ilgan. To‘rt yillik rus-tuzem maktabida tahsil olgan. 1923-1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasida moliya noziri lavozimida ishlagan. “Milliy ittihad” tashkiloti a‘zosi.

1937-yil 2-dekabrda Fayzulla Xo‘jayev, Munavvar qori Abdurashidxonov qo‘l ostida milliy ozodlik faoliyati bilan shug‘ullanganlikda, 1936-yili aholi orasida sovet hukumatini ag‘darish haqida targ‘ibot olib borganlikda, noqonuniy ravishda qurol saqlaganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 104-moddasi qo‘llanilib hibsga olingan. Ichki ishlar xalq komissarligi “uchligi” tomonidan 1938-yil 4-fevralda 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1990-yil reabilitatsiya qilingan.

Mamarasul Rasulov – 1900-yili Andijon rayoni Mirobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Toshkentda o‘qib, o‘rta pedagogik ma‘lumotga ega bo‘lgan. “Qizil-Yulduz” kolxozining hisobchisi bo‘lib xizmat qilgan.

OGPU tomonidan boshmachilar bilan faol aloqada bo‘lganligi, “Milliy ittihad” tashkilotidagi faoliyati uchun bir necha bor hibsga olingan. Kolxozchilar o‘rtasida partiya va hukumatning ayollarni “ozod qilish”, savodsizlikni tugatish kabi tadbirlariga qarshi tashviqot olib borganlikda ayblanib, 1937-yilning 9-avgustida qamoqqa olingan. Jinoyat-protsessual kodeksining 49-moddasi qo‘llanilib 1937-yil 29-avgustda otuvga hukm o‘qilgan, mol-mulki musodara qilingan.

Ubaydullo So‘piyev – 1887-yilda Namangan shahri Sardoba rayoni Artelobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Kitob savdosi bilan shug‘ullangan. Namangan shahar maorif bo‘limi kutubxonasida faoliyat yuritgan. “Milliy ittihad” tashkiloti a‘zosi.

1937-yilning 19-avgustida hibsga olingan. Unga nisbatan davlatga qarshi aksilingqilobiy va millatchilik ruhida harakatlarni sodir etganlik aybi qo‘yilgan. 1937-yilning 13-oktyabrida otuvga hukm etilgan.

Zokirjon Nasriddinov – 1904-yili Andijonda diniy xodim oilasida tug‘ilgan. Buxorodagi madrasada tahsil olgan. “Yosh buxoroliklar” harakatiga qo‘shilib Fayzulla Xo‘jayev bilan birga faoliyat olib borgan. 1917-yil aprelida Amir Olimxon tomonidan jadidlik harakati a‘zolari quvg‘in qilinganidan so‘ng Andijonga qaytgan va savdogarlik bilan mashg‘ul bo‘lgan.

1926-yilda “Milliy ittihad” tashkilotiga a‘zolikda ayblanib, Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi tomonidan hibsga olingan va bir yildan so‘ng ozod qilingan. 1932-yilda “Fayzulla Xo‘jayev” nomidagi kolxoz raisi bo‘lgan.

1937-yil 22-oktyabrda Andijon okrugi hozirgi Shaxrixon tumanidagi uyida hibsga olingan. Ichki ishlar xalq komissarligi “uchlik” guruhi tomonidan “millatchi tashkilotga a‘zo bo‘lish”, “aksilingqilobiy targ‘ibot bilan shug‘ullanish”, “xalq dushmani” Fayzulla Xo‘jayevni maqtash” aybi qo‘yilib, 1938-yil 15-martda otuvga hukm qilingan. 1989-yil 25-iyulda reabilitatsiya qilingan.

Baxtiyor ALIMOV, Jasurbek IMINOV, Azizbek MAHKAMOV, AnDulmasidov

Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi ilmiy xodimlari

(Davomi kelgusi sonda).

UZRI GUNOHIDAN BATTAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Ular Yevropaning zamonaviy ilm-fani va texnik yutuqlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, erkin tafakkur mazasini tuyushadi. Vatanni ham shunday ozod, rivojlangan, yuksalgan, xalqni baxtiyor ko‘rishni orzu qilishadi. Biroq talabalar ongidagi bu evrilishni sovet malaylari allaqachon sezib ulgurgan, erkin parvozga qo‘yib yuborilgan hur xayollarni ovlashga tuzoq hozirlayotgan edi.

1926-yil yanvar oyida Toshkentga kelgan Nasriddinning, o‘sha yilning yozida esa ukasi Fuzailning pasportlari olib qo‘yilib, Yevropaga qaytishiga ruxsat berilmaydi. Moliyaviy ta‘minot uzib qo‘yiladi. Porloq orzulari yarim yo‘lda uzilgan Nasriddin bunday nohaqlik va ruhiy bosimga chiday olmay, alam ustida o‘z joniga qasd qiladi. Tasodif tufayli tirik qolgan yigit 1927-yili Batumi orqali Germaniyaga qochib o‘tmoqchi bo‘lganida, chegarada qo‘lga olinadi va yetti oy hibsdan saqlanadi. GPU uni faqat “ayg‘oqchi” sifatida yollanish sharti bilan ozodlikka chiqaradi. Bu “chorasizning chorasi” o‘laroq bir yoqlama kelishuv edi. Vaziyat shu qadar og‘ir ediki, Najmiddin Germaniyadagi Saidaga Afg‘oniston konsulxonasi orqali pul va xat yo‘llayotib, sovetlar mamlakatda mutlaq hokimiyat o‘rnatgani va xalqni qo‘rqitib olganini alam bilan yozgandi.

Boshida salanglab turgan dor vahmiga qaramay, Nasriddin Sherahmedov 1928–1930-yillari O‘rta Osiyo davlat universiteti (SAGU)ning iqtisodiyot fakultetida tahsil olib, o‘tkir iqtisodchi bo‘lib yetishadi. Samarqand va Toshkent moliya idoralarida ishlay boshlaydi. Biroq u rasman GPUGa yollangan bo‘lsa-da, amalda do‘stlari va safdoshlariga qarshi birorta jo‘yali axborot bermaydi.

O‘sha yillarda oilaning bosh ustuni, Rossiya shaharlari bilan keng savdo aloqalariga ega bo‘lgan va xorijdagi yuzlab



o‘zbek yoshlariga homiylik qilgan Najmiddin Sherahmedov 1929-yilning noyabrida “Milliy ittihad” tashkiloti ishi bo‘yicha hibsga olinadi va 1931-yilda Moskvada otuvga hukm qilinadi. Rafiqasi Mahfuza Orifxo‘ja qizlari Adiba va Alfiya bilan ayanchli holda qolib ketadi. 1934-yilga kelib, Nasriddin otasi Sherahmadboyning maslahati bilan Mahfuzaga uylanadi.

Bu orada Nasriddin Kerki orqali xorijga qochishga harakat qilganlikda ayblanib, yana qamoqqa olinadi. Dalillar yetarli bo‘lmagani uchun qo‘yib yuboriladi, ammo davlat idoralarida ishlash taqiqlanadi. Noloj qolgan iqtisodchi Mahfuzaning tavsiyasi bilan tish shifokorligi yo‘nalishida o‘qiy boshlaydi.

Fuzail esa Germaniyada orttirgan bor ilmtajribasini ishga solib, Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon shaharlarida yo‘l qurilishi idoralarida bosh muhandis bo‘lib mehnat qilayotgan, O‘sh asosiy yo‘li qurilishida bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlayotgan edi.

1937-yil 2-yanvar kuni Nasriddin, 13-sentyabrda Fuzail hibsga olinadi. Xonadondagi boy kutubxona, xat-hujjatlar musodara qilinadi. 29-sentyabrda Mahfuza Sherahmedova ham garov sifatida qamoqqa tashlanadi. 12 yoshli Adiba va 7 yoshli Alfiya bolalar uyiga joylashtiriladi.

Tergov jarayonlarida aka-ukalarga Yevropadagi milliy ozodlik harakati a‘zolari bilan hamkorlik, “trotskiychilik” va josuslik ayblari qo‘yilib, dahshatli jismoniy

qiynoqlarga, ruhiy tahqirlarga duchor etiladi. Fuzail vahshiyona azoblardan so‘ng oldindan mashinkada tayyorlab qo‘yilgan hujjatlariga imzo chekadi, biroq keyingi yuzlashtirishlarda aybni bo‘yniga olmaydi. Nasriddin tergovni tezlashtirish talabida ochlik e‘lon qiladi. Mash‘um so‘roqda jallodlarning “O‘zingni aybdor deb bilasanmi?” degan savoliga keskin javob qaytaradi: *“Ha, 1928-yilda GPU meni majburlab o‘z tuzog‘iga yollab olgan edi. Ammo men do‘stlarim va safdoshlarimning yo‘q qilinishidan qo‘rqib, tizimga birorta ham axborot bermadim! Men hech qachon Vatanimga xoinlik qilmaganman!”*

Mustabid tuzum uchun inson vijdoni va haqiqatning, umuman, odam bolasining chivinchalik qiymati yo‘q edi. 1938-yil 8-oktyabr kuni Fuzail Sherahmedov rasmiy hukm chiqarilishidan bir kun avval yashirinchka otildi. 9-oktyabr kuni yigirma daqiqa davom etgan “uchlik” majlisida Nasriddin Sherahmedovga ham O‘zSSR JKning 62, 64, 67-moddalari bilan otuv hukmi qo‘yildi.

Garovda ushlab turilgan Mahfuzaga nisbatan e‘lon qilingan ayblovda jinoyat tarkibi topilmagach, u 1939-yil fevralida sho‘ro do‘zaxidan qutulib chiqadi. Unga turmadagi qiynoqlar haqida umrbod miq etmaslik to‘g‘risida majburiy tilxat imzolatilshadi.

Germaniyadan qaytolmay, Turkiyaga o‘tib ketgan Saidam umrbod jigar dog‘i va Vatan firog‘ida yashab, yot ellarda ko‘z yumadi.

1957-yil 3-oktyabrda Nasriddin Sherahmedov, 1958-yil 27-martda Fuzail Sherahmedov rasman oqlanadi. Mahfuza ayaga sovet davlatiga nisbatan hech qanday mulkiy va ma‘naviy da‘vosi yo‘qligi haqida yana bir majburiy qog‘ozga imzo cheklatirishadi... “Uzri gunohidan battar” deganlari shu bo‘lsa kerak-da!

Bo‘ri QODIROV, Alisher ATAYEV



TARMOQLARDA NIMA GAP?

G'ALABANING ONASI TAJRIBADIR

Assalomu alaykum, aslzoda o'qirmanlar va futbol ishqibozlari. Bugun futbol haqida ikki og'iz gaplashmoq istayur bu ko'ngul.

Men ham siz kabi futbolchi bo'laman deb bo'lolmay qolganlardanman. Futbol maktabiga ham qatnashganman. Bizning davrlarda futbol boshqacha edi. Nestelroy, Hidetoshi Nakata, Umid Davala, Ronaldo kabi o'yinchilar bo'lar edi. Eh, yoshligim...

Shu desangiz, oxirgi yillarda futbolchilarimiz misli ko'rilmagan natijalarni qayd etishdi. Bir paytlari "Manchester Siti"da o'zbek o'ynaydi desa, birov ishonmasdi. Bugun qarang, Abduqodir Angliyani, Abbos bilan Eldor Turkiyani yondiryapti. Rossiya, Eron, Arab tomonlarni uncha mensimay ham qoldik. Qaytimiga Jahon chempionatiga ham chiqdik.

Ammo... ammo... ammo, shu joyi juda muhim-da. Bizning qishloqdagi Mardon ko'mirqalbg'a o'xshaganlar Jahon chempionatiga birinchi marta chiqayotgan jamoamizdan ko'p narsa kutib yubormayaptimi?

Oddiy o'rtoqlik o'yinida yutqazib qo'y-sak, har xil ko'mirqalb gaplarni gapirib yubormayaptimi?

Jahon chempionatiga chiqishdi. Natija qanday bo'lishidan qat'i nazar, mazza qilib o'ynab kelishsin, bo'ldi. Eng muhimi – tajriba.



Eng muhimi – qo'rqadigan qorong'ilikdan o'tib oldik.

Keling, shu joyida yaponlar haqida aytib beray. Shu desangiz, Yaponiya futbol jamoasi ilk bor 1998-yilda Jahon chempionatiga chiqishadi. Argentina, Xorvatiya, Yamayka bilan bir guruhga tushib, hamma o'yinda

yutqazadi. Kim bilan o'ynasa, hammasiga yutqazadi. E, o'ynamaganlariga ham yutqazadi...

Lekin, o'sha paytda yapon futbol muxlislari jamoasini malomat qilishmagan ekan. "Birinchi martaga bo'ladi" qabilida ish tutishgan ekan.

Shu bilan yildan yilga o'sib kelyapti. Kuchli 16 talikka ham bir necha marta kirdi. Esingizda bor, o'tgan Jahon chempionatida Ispaniyani ham, Germaniyani ham enasini ko'rsatishdi. Biz ham birinchi marta chiqayotganligimiz uchun ja bosim qilib yuborishimiz shart emas. Tajribani to'plab-to'plab, keyin enasini ko'rsatamiz.

Xo'sh, bu yilgi Jahon chempionatida Yaponiya nima karomat ko'rsatmoqchi, desangiz, butun Yaponiya futbol afkor ommasi kuchli 8 talikka kirishni kutishyapti. Shu yerda bir gapni aytib ketay: "Yaponiya 2050-yilda jahon chempioni bo'ladi" degan loyiha tuzib chiqishgan va o'sha loyiha bo'yicha harakat qilishyapti. 2050-yilda chempion bo'ladimi, yo'qmi, ammo shu yo'lda ketishyapti. Hozirgacha shu loyiha bo'yicha hammasi joyida ketyapti emish.

Xulosolog sifatida xulosa qiladigan bo'lsak, bizning yigitlarimiz dushanba kuni Jahon chempionatiga chiqib, seshanba kuni katta natija kutishimiz noto'g'ri. Arqonni uzunroq tashlasak, nur ustiga nur bo'lajak. Undan ko'ra, yaponlarga o'xshab, "Ha, hozircha yuta olmaymiz. Ammo, nimadir qilib dunyoning yoqimtoyiga aylanishimiz kerak. Masalan, o'yindan keyin chiqindilarni yig'ishtirib ketish" kabi PR kampaniyalarini uyushtirishimiz



kerak. O'zbek o'yinchilarining qo'li ko'ksida ekan, juda odobli ekan, oxirigacha kurashar ekan, muxlislari ham zo'r ekan, kabi gaplarni tarqatib kelsak bas.

Sensatsiya bo'lib guruhdan chiqa olsak, ertakdek bo'lardi. Nima bo'lganda ham yigitlarimizga omad tilaymiz. G'alabami, mag'lubiyatmi – sizlarni qo'llab-quvvatlaymiz va duo qilamiz!

Olg'a, yigitlar!

Bahodir ISKANDAROV,
Tokio
Facebook

YANGI KITOBLAR

Biz bilgan va bilmagan tarix


Bir kuni tong payti padari buzruvori uni mahalladagi ta'ziyaga olib boradi va... butun Yevropani hayratga solgan "Boysun Madonnasi" ana shu xonadon sohibi Ro'zi akaning ayoli ekanini tasodifan bilib qoladi! ...Shundoq yonginasida, o'z mahallasida yaratilgan buyuk asar haqida uzoq Yevropaning qoq markazidagi mamlakatda eshitib qaytgandi u! Uning o'zi tugul, umr bo'yi shu yerda, shu xonadon bilan yonmayon yashab kelgan mahalladoshlar ham bundan xabardor emaslar!

– Kimlar ekan bu qarapchi deganlari?
– Endi bildim: Alpomishning tog'laril!..

Alpomishning onasi asli Zomindan ekanligi... O'zi esa ularga jiyani hisoblanishi... Xalqimiz og'zaki ijodidan qay bir buloqlar ilhom berib yaratilmish ekan ushbu g'aroyib nazmiy qatorlar!

Keyingi o'n yilliklarda olib borilgan tadqiqotlar ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning Samarqandga ketayotib, Zarautdan o'tgani va o'z taassurotlarini "Sab'ayi sayyor" dostonida aks ettirgani haqida so'zlaydi.

Jo'rabek Cho'tmatov Muhammad Hakim Termiziy bobomizning Andalusiya mashhurligi sabablarini o'rganar ekan, Ibn Arabiydan boshqa yana bir nechta islom Ispaniyasi mashoyixlari haqida so'z yuritadi. Masalan, Kurtubiy degan olim o'zining tafsir kitoblarida Hakim Termiziydan ko'plab iqtiboslar keltirgan. Granada ahlidan bo'lgan ibn Atiyya Andalusiya va Abuhayyon Nahviy Andalusiylar ham o'z asarlarida Termiziyga murojaat etganlar. Ali ibn Sulaymon ibn Ahmad ibn Sulaymon Murodiy Andalusiya Hakim Termiziyning o'n ikkita asarini kitobat etib ko'chirgani va bu asarlar hozirgi kunda Parij milliy kutubxonasida



saqlanayotgani haqidagi xabarlar ham shular jumlasidan.

So'ngra (V.G.Belinskiy) quyidagi dalillarni keltiradi: "Kantemirlarning kelib chiqishi to'ppato'g'ri Temurlangga bog'lanadi... Ammo hajvchi (Antiox) Kantemirning shajarasi Temurlangga bog'lanadimi, Odam Atogami – rus adabiyoti uchun baribir. Uning moldaviyalik janob Dmitriy Kantemirning o'g'li ekanini, bu janob buyuk Pyotrning zamonidan, xususan, Prutda sulh bilan tugallangan rus-turk urushi tarixidan ma'lum-u mashhur ekanini bilish rus adabiyoti uchun kifoyadir".

XIX-XX asr boshlarida ba'zi mualliflar tomonidan bu mintaqaning Sartiya deb atalishi sabablari ham shu so'zda ko'rinayotir. O'zbeklarning bobolari – qadimgi turklar Sirdaryoni "O'kuz yurt" va boshqa xalqlar o'zlariga moslab "Yaksart", "Yaxshart", "Hashart", "Yosha" shakllarida talaffuz qilgani ma'lum bo'lmoqda.

Bu nomni miloddan oldingi bir necha ming yilliklar bag'rida ham uchratasiz. Qachonlardir Orol O'kuz dengizi, Buyuk O'kuz nomi bilan atalgan.

Sadriddin Ayniyning 1954-yil 28-noyabr kuni Sharof Rashidovga yozgan xatidan bir parcha:

"...yozuvchi Ra'no Uzoqovani sizga mening tanishtirishim kerak emas. Siz shaxsan uni yaxshi taniringiz. Ammo uning qizchasi to'g'risida ma'lumot beruvchi kishi menman. Qizcha onasi o'lgan vaqtga uch yashar edi... Shunisi xarakterliki, qizdan mening oila a'zolarimdan biri: "Onangning qavm-u qarindoshlari bormi?" deb so'raganida, "Bor", debdi. "U kim?" deganda, "Shoira Zulfiya xolam", deb javob beribdi"...

Serqirra ijodkor, taniqli jurnalist va tarixchi olim Abdulla Xolmirzayevning yangi "Saylanma"sidan o'rin olgan qiziqarli tadqiqotlar, xususan, "Yer yuzidagi eng chuqur g'or nomiga da'vogar Xo'ja G'urg'ur yoxud O'zbekistonning yerosti Jomolungmasi", "Teshiktosh kashfiyotining ba'zi tafsilotlari", "Badash san'atida Navro'ziy navolar", "Buxoro amirining amakivachchasi", "Eduard Chernuxinning Surxon sog'inchlari", "Skafringus – Amudaryo ajoyiboti", "Alpomishning tog'alari", "Erto'g'rul", "Temurxon naslidan Kantemir" singari qirqdan ziyod esse va maqolalar shonli tariximizning biz bilgan va bilmagan sir-u sinoatlari, dur-u javohirlari haqida hikoya qiladi. Yaxshi kitobga ortiqcha ta'rif-u tavsif shart emas, yuqorida keltirilgan ayrim kichik parchalarning o'ziyoq o'quvchini o'ziga jalb eta olishi shubhasiz.

To'plam O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida "Adabiyot" nashriyotida chop etilgan.

Nigina ISKANDAROVA

TILBILIM

"Raqs" so'zining turkiy tildagi muqobili ham mavjud bo'lib, u bugungi kunda unutilgan "budik" so'zidir. Bu so'z quloqqa biroz notanish eshitilsa-da, uning ildizlari qadimiy til qatlamlariga borib taqaladi.

Oltoy tillari etimologik lug'atida so'z bode – "sakramoq" fe'l o'zagiga bog'lab izohlanadi. Mazkur o'zakdan kelib chiqqan shakllar turli tillarda fonetik jihatdan o'xshash ko'rinishda uchraydi.

“RAQS”NING TURKIYCHASI



Jumladan, tungus tillarida *buduri* – "shoshilmoq", mo'g'ul tillarida *büdüri* – "qoqilib ketmoq, muvozanatni yo'qotmoq", turkiy tillarda esa *büdi* – "raqsga tushmoq, sakramoq, joyida deysinmoq, tipirchilamoq, yengil harakatlanmoq" ma'nolarida qo'llangan. So'z turkiy tillarning ko'pida har xil shakllarda saqlanib qolgan. Masalan, qadimgi turkiy matnlarida *büdi*, tatar tilida *bej*, boshqird tilida *beje*, qirg'iz va qozoq tillarida *bij* (*raqs*) va *bijle* (*raqsga tushmoq*), qoraqalpoq tilida *bij*, qumiq va no'g'ay tillarida *biji* shakllari uchraydi. Yoqut tilida esa *bitij* (*raqsga tushmoq, deysinmoq*) va *bitir* (*raqs*) shaklida saqlangan. Bu yerda tovush o'zgarishlari (*d* → *t*) kuzatiladi. Yapon tilidagi *bontor*, koreys tilidagi *ptüri* – "sakramoq" ma'nosini bildiradi. Bu shakllarning barchasi harakatlanish, sakrash, tezkor harakatlar bilan bog'liq umumiy semantik qatlamni ko'rsatadi. Shu jihatdan ular qadimiy davrlarda bir ildizdan kelib chiqqan bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashlar mavjud.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda, xususan, "Devonu lug'atit turk"da *budik* so'zi "o'yin" ma'nosida keltirilgan. Shuningdek, "buzidi" shakli esa "o'ynadi" ma'nosida izohlangan. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida esa "O'zbeklarning budi budoyi hech vazn bila rost emas erdi" degan jumla keltirilgan, "budi budoyi" xalq orasidagi qo'shiq nomi sifatida tilga olingan. Ushbu birikmaning o'zi ham qadimiy turkiy til

qatlamidagi *budik* ildizi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Gerard Kloussonning "XIII asrgacha bo'lgan turkiy tillarning etimologik lug'ati"da bu so'zning *bodi*, *bödi* kabi talaffuz variantlari ham qayd etiladi. U ayrim matnlarda "raqsga tushish", "harakatlanib o'ynash" ma'nolarida ishlatilgan. So'z bugungi ayrim turkiy tillarda ham saqlanib qolgan, masalan, uyg'ur va ba'zi shevalarda *biyi*-, qozoq tilida *bile*- shakllari "raqsga tushmoq" ma'nosini bildiradi. Qoraxoniylar turkiy tiliga oid manbalarda esa *ki:z bodi:di*: ("qiz raqsga tushdi") kabi shakllarda uchraydi.

Bu o'xshashliklar turli tillarda harakat, sakrash va raqs tushunchalari juda qadimiy umumiy semantik asosga ega bo'lganini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu shakllar uzoq tarixiy davrlarda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona ildizdan rivojlangan bo'lishi mumkin, biroq har bir til uni o'z ichki taraqqiyoti asosida ham shakllantirgan.

Xulosa qilib aytganda, budik so'zi turkiy xalqlarning qadimiy madaniyatida til birligi, raqs, harakat va marosimiy ijro madaniyatining ifodasi sifatida namoyon bo'lgan. Uning turli tillarda saqlanib qolgan shakllari esa mazkur tushunchaning juda qadimiy va keng tarqalgan hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Iroda RAHMONALIYEVA



Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Adadi – 18 461
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 999
Lotin yozuvida – 11 462
Media kuzatuvchilar – 84 447
Buyurtma: G – 640
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzili:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI